

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

**“KASHTACHILIKDA SOVG'ABOB BUYUMLAR TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

3-1ASK-15 Kasb ta'limi
(amaliy san'at) ta'lim yo'nalishi talabasi
Bozorova Muattar Ne'matovna _____

Ilmiy rahbar:

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrasi o'qituvchi
Xakimova Gulnora Abdumalikovna _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2019 yil

BUXORO 2019 y

**Mavzu: KASHTACHILIKDA SOVG'ABOB BUYUMLAR
TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI**

Reja:

Kirish.....	3-7
I-BOB. Kashtachilik san'ati tarixiga bir nazar.....	8-12
1.1.Shofirkon kashtachilik san'ati maktabining tahlili.....	13-18
1.2.Kashtachilik san'atida ramziy naqshlar ma'nosi.....	19-34
1.3.Kashtachilikda bezalgan sovg'abob buyum turlari.....	35-39
II-BOB. Kashtachilik san'atida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ipak turlari.....	40-46
2.1.Sovg'abob buyumlarni kashtachilikda bezashda kompozitsiya qonuni.....	47-54
2.2. Ipakni tabiiy ranglarga bo'yash texnologiyasi.....	55-59
2.3. Kashtachilikda ranglar simbolikasi va rang tanlash.....	60-66
2.4. Kashtachilikda sovg'abop buyum tayyorlash texnologiyasi.....	67-75
Xulosa.....	76-78
Ilova.....	79-88
Adabiyotlar ro'yxati.....	89

KIRISH

O'zbek xalqining qadimiy amaliy san'ati deyilganda, xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan, hunarmandlarning qo'llari bilan yaratilgan badiiy ashyolar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

“Kashtachilikda sovg'abob buyumlar tayyorlash texnologiyasi”, mavzuli bitiruv malakaviy ishi o'zbek milliy amaliy san'ati turlaridan biri hisoblangan kashtachilik san'ati haqida bo'lib, barcha "Amaliy bezak san'ati" fani o'qituvchilari, umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kelajakda yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

Bitiruv malakaviy ishning I-bobida asosan kashtachilik san'ati tarixi, Shofirkon kashtachilik san'ati maktabini o'rganib chiqish va qiyosiy tahlil qilishdir. Kashtachilikda ramziy naqshlar ma'nosi va kashtachilikda sovg'abob buyum turlari haqida fikr yuritilgan. Kashtachilikning tarixi va o'ziga xos tomonlari, kashtachilik san'atining turlari, kashtachilikda naqshlarning turlari, kashta tikish asboblari va moslamalari, kashta tikishda rang tanlash haqida keng ma'lumot berilgan. Bitiruv malakaviy ishning II - bobida bajarilishidan asosiy maqsad - kashtachilikda kompozitsiya qonunlariga rioya qilish, ranglar simbolikasi, hamda kashtachilikda sovg'abob buyumlar tayyorlash texnologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Vazirlar Mahkamasining 1.12.2017 yildagi 957-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Badiiy akademiyasi Ustavi tasdiqlandi. Hujjatga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston Badiiy akademiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi: O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, shaxsiy va ijodiy ko'rgazmalar uchun keng imkoniyatlar yaratib berish hamda ijodkorlarning badiiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- jahondagi yetakchi badiiy akademiyalar, ushbu yo'nalishdagi ta'lim muassasalari, tashkilotlar, atoqli madaniyat va san'at arboblari bilan ilg'or tajribani almashish maqsadida har tomonlama ijodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- ijodkorlar va iste'dodli yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish hamda Badiiy akademiya tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- xalqimizning boy madaniy merosini, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn an'alarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishidagi ijodkorlarning milliy o'zlikni anglash g'oyalarini tarannum etuvchi yuksak darajadagi yorqin san'at asarlarini yaratishdagi faoliyatini rag'batlantirish va bolalar san'atini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Badiiy akademiya tizimidagi ta'lim muassasalarining faoliyatida badiiy ta'lim uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlashga erishish maqsadida ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatlari va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun boshlang'ich badiiy ta'limni yo'lga qo'yish;
- O'zbekiston madaniyati va san'atining taraqqiyoti yo'lida tasviriy va amaliy san'at, dizayn va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida Badiiy akademiya tizimidagi ta'lim muassasalarining faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish;
- tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishida etuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, Badiiy akademiya markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini kuchaytirish, bu boradagi vazifalarni amalga oshirishning zamonaviy, ta'sirchan usul va shakllarini tizimli asosda rivojlantirib borish;
- O'zbekistonda va xorijda keng ko'lamli ko'rgazmalar tashkil etish orqali milliy san'atimiz yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, konferenstiya, biennalelar va boshqa anjumanlar o'tkazish.

Asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda Ustavda Badiiy akademiyaning tegishli yo'nalishlar bo'yicha asosiy funkstiyalari mustahkamlangan, huquq va majburiyatlari, rahbariyatning asosiy funkstional vazifalari va javobgarligi

belgilangan, Badiiy akademiya tarkibiga kiruvchi muassasalarning faoliyatini tashkil etish masalalari hal etilgan hamda Badiiy akademiyaning haqiqiy a'zolarining huquq va majburiyatlariga ta'rif berilgan.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari kabi birinchi galda eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e'tiqodli, halol va sofdil, talabalarga, o'smir va yoshlarga nisbatan o'ta mehribon, o'ta talabchan va o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini mukammal biladigan va hurmatini joyiga qo'yadigan bo'lishi kerak. O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u eng avvalo o'z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo'lmog'i ta'lab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg'or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat'iylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib tursin.

O'qituvchi amaliy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiat go'zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'riflab bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqтира olmaydi. Bugungi talaba, bo'lajak pedagog, o'zbek xalqining hamda o'tmishi bor bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarning amaliy va tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga ulashmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi:

- O'zlari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o'rgatish;
- Ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun mas'ul shaxslar qilib tarbiyalash;
- Ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli o'qituvchilar yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash;
- Talabalarni tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda esa astoydil o'rgatish uchun maxsus maktab yoki to'garaklarga jalb etish;
- O'quvchi va yoshlarga amaliy va nafis san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, to'g'ri va asosli shakllantirish uchun

pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish:

- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san'at asarlarini mushohada qila olmog'i va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo'lish:

a) Tasviriy san'at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bunday imkoniyatni har bir mashg'ulotda qo'llash uchun yangicha uslub va mumkin bo'lgan usullarini ishga solish hamda amalda qo'llay olish mahoratini o'rgatish:

b) Zamon talabi bilan dars va mashg'ulotlarni noan'anaviy dars rejalari bilan o'tkazish:

v) Jahon andozalariga xos yangi texnologiyalarini o'rganib, darsda qo'llay olish mahoratini egallashi kerak.

Mavzuning dolzarbligi.

Amaliy san'at o'zining spetifik xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu - istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuqlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

Bizning mamlakatimizda amaliy san'at tarbiyaning kuchli vositasi bo'lib, kishilarni ilg'or qarashlar bilan qurollantirishda, mustahkamlashda, ularning kelajakka ishonchi va kommunistik axloq asoslarini mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Ijodkorlarimizning, haqqoniy va hayotbaxsh g'oyalar bilan sug'orilgan asarlari, insonoyat uchun shodlik va ilhom manbai hamda axloqiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Tadqiqot maqsadi va vazifasi:

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kashtachilikda sovg'abob buyumlr tayyorlash texnologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, barcha amaliy san'at fani o'qituvchilari, san'at litseylari, o'rta umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Kelajakda

yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi – amaliy san'at turlarini, uning texnologiyasini o'rganib chiqib, qiyosiy tahlil qilishdir. Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan:

Kashtachilik san'ati tarixiga bir nazar, Shofirkon kashtachilik san'ati maktabining tahlili, kashtachilik san'atida ramziy naqshlar ma'nosi, kashtachilikda bezalgan sovg'abob buyum turlari. Shular bilan bir qatorda, kashtachilik san'atida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ipak turlari, sovg'abob buyumlarni kashtachilikda bezashda kompozitsiya qonuni, ipakni tabiiy ranglarga bo'yash texnologiyasi, kashtachilikda ranglar simbolikasi va rang tanlash hamda kashtachilikda sovg'abop buyum tayyorlash texnologiyasidir.

Tadqiqot ob'yekti:

O'rta umumta'lim maktablarida va maktabdan tashqari muassasalardagi amaliy san'at to'garaklari tashkil qilish, dars jarayonida va to'garaklarda amaliy san'at tarixi va texnologiyasi, xususan kashtachilik san'atiga b'olgan qiziqishlarini yanada oshirish, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan keng ko'lamda foydalanish va amaliy san'at turlarini yoshlarga o'rgatishda qo'llash jarayoni.

Tadqiqot predmeti:

Xalq amaliy bezak san'atining kashtachilik san'atiga oid to'garaklarni tashkil etish shakllari va uslublarini ishlab chiqish va amalda qo'llash. Yoshlarga O'zbekistonning mashhur hunarmand ustalari haqida keng ma'lumot berish va ish uslublari bilan tanishtirish va ularga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Amaliy san'at fanidan to'garaklarini yangi zamonaviy uslubini ishlab chiqarish, unda o'quvchilarga o'rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va amalga tadbqiq qilish, tarixiy muzeylarha, mashxur rassomlarning uy muzeylarida ekskursiyalar tashkil qilish, rassomlar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari tashkil qilish.

I-BOB.

KASHTACHILIK SAN'ATI TARIXIGA BIR NAZAR

O'zbekistonda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta, tuzxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bundan tashqari, uzatiladigan qiziga ham bezak buyumlari masalan, so'zana, choyshab, oynaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpa, bo'g'joma (kam ishlatiladigan buyumlar, taxlangan ko'rpalarni o'rab qo'yadigan), parda, belbog', yostiq ustiga yopiladigan mato, do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, qiyiq, joynamoz, sumka, nimcha va boshqalarni badiiy did bilan bezatishgan. Shu kungacha kashtachilik buyumlari eng qimmatli hunar namunasi sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Yosh qizlar to'qqiz yoshidan boshlab kashta tika boshlagan. Onasidan va ustozidan o'rgangan naqshlarini turli xil naqshlar bilan boyitgan holda matoga sayqallashtirib borgan. Naqsh tikish bu yo'nalishdagi eng oson usul sanaladi va buning uchun chizib olingan naqsh iplar bilan tikilib to'ldirilsa bo'ldi. Uning yo'llari katta yoki kichik bo'lishiga unchalik ham ahamiyat berilmaydi. Bosma tikishda esa, choklar orasi yaqin bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Tikilgan choklar orasi qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik chiroyli bo'ladi. Buning uchun bir yo'l tikiladi va uning ustidan bosib yana bir marta qarama-qarshi yo'nalishga chok yuritiladi. Eng asosiysi shundaki, ustidan bosib tikilgan chok kashtaning boshlanishida qaysi tomonga yo'nalgan bo'lsa, oxirigacha shu yo'nalishda bo'lishi shart. Donalab tikish esa, kashtachilikning eng qiyin turi sanaladi. Bunda har bir chok dona-dona, yonma-yon va maydalab tikiladi va iplarning tagidan mato ko'rinmasligiga e'tibor berish kerak. Agar mato iplarning tagidan ko'rinib tursa, ekspertlar tomonidan bu asil kashtachilik namunasi sifatida e'tirof etilmaydi. Ba'zan sotish uchun tikilgan so'zanalarda bu holni kuzatish mumkin. Talab darajasida tikilgan so'zanalar qimmatbaho deb baholanadi. Qo'lda tikilgan kashta mashinada tikilgandan ko'ra, bir necha baravar qimmatroq va asilroq bo'ladi.

Eng mohir chevaralarda kashtaning unchalik ko'rinmaydigan biror joyiga tumor yoki ko'zmo'nchoq tasvirini tushirish yoki ataylab naqshning kamgina joyini bitirmasdan qo'yish odati ham uchraydi.

Kashtachilik - kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy soxalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadiymiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq xolda xar bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb xunar turlari bilan birga, ularni tasiri bilan rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtachilikni paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bog'liq. Kashtachilik taraqqiyotni Qadimgi Osiyo, Yevropa, Amerika, madaniy yodgorliklari adabiy manba'lardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtachilik namunalardan kuzatish mumkin. Kashtachilik maxsulotining eng qadimiy nosxalari saqlanmagan. Kashtachilik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atni tasiri katta bo'lgan. Masalan: XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavxalari aks ettirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda Kashtachilik koronalar vujudga kela boshladi. Ishchilarni yo'lga qo'yilishi an'anaviy kashtachilikni inqirozga uchratdi. Kashtachilikdagi mavjud an'analar susayib ketdi, arzon boxo mashina kashtalari katta mahorat va ko'p mehnat talab qiladigan qo'l kashtalarini siqib chiqardi.

Kashtachilik - O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib O'rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetik rang – barangligining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Kashtachilik asosan 6 ta hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg'ona kashtachiligi maktablaridir. So'zana ornamentining ayrim joylarida guldastali guldonlar hamda guldastaning o'rtasida anor shaklini ko'rishimiz mumkin. Mallarang, tillarang, havorang, pushti, nofarmon och yashil ranglar bir – birlari bilan uyg'unlashib, so'zanaga o'zgacha bag'ridillik baxsh etadi. Kashtachilik hamma davru zamonlarda ham ijtimoiy ahamiyat kasb etgan.

Hunarli xor bo'lmas, deganlaridek, qo'lida hunari bo'lgan xotin - qizlar o'ziga kerakli bo'lgan narsalarni sotib olishga shu hunari tufayli orttirgan mablag'ini ishlataverishi mumkin. O'zbek milliy kashtachilik san'ati xalq amaliy bezak san'atning eng qadimiy va go'zal turlaridan biri bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi kungacha kashtachilikda yaratilgan badiiy buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang - barangligi bilan kishilarni lol qoldirib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega ekanligini, arxeologik topilmalar va yozma manbalar yil sayin isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivojlanib kelmoqda.

Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanib qolmaganligi barchaga ma'lumdir. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilik san'atining qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini o'z kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yilda Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtachilik kompozistiyasini aks ettirgan. O'zbek kashtachilik buyumlarida asosan stillashtirilgan o'simliksimon naqshlarni uchratish mumkin.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek oilasida tug'ilib, voyaga etgan qizlar, ya'ni bo'lajak kelinlar, o'z seplarini o'z qo'llari bilan tayyorlashlari kerak bo'lgan. Kashtachilikda bajarilgan buyumlar nozik, chiroyli va o'zida ramziy ma'nolarni aks ettirishi kerak bo'lgan. Bu so'zanalarda o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Respublikamizning istiqloлга erishish, yo'qolib borayotgan qadimgi milliy an'anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining qayta tiklashga va unga yosh avlodni qiziqtirishga keng yo'l ochib berdi. An'anaviy xalq amaliy bezak san'ati markazlaridan biri ko'hna Buxoro shaxridir. Bu shahar Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, qadimdan Movarounnahr poytaxtlaridan biri bo'lib, boshqa ko'plab mintaqaviy shaharlar madaniyati, adabiyoti va san'atining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan me'mor ustalar, olimlar, ulamolar Buxoro madaniyatining shakllanishida katta o'rin tutganlar.

XIX asrda shahar Buxoro amirligining poytaxti edi. Buxoro amirligi davrida ajoyib shaharda qo'li gul ustalar ishlaganlar. Buxoro shahrida ikki yuzdan ortiq mahalla va guzarlar bo'lib, ularning har birida turli kasb namoyondalari istiqomat qilishgan va shahar aholisining 25 foizini hunarmandlar tashkil qilgan. Amir saroyida 400 ga yaqin ustalar, xalq amaliy san'ati namoyondalari: ajoyib kashtado'z va to'quvchilar, zardo'zlar, misgarlar, kandakorlar, kulollar, zargarlar, xattotlar, gilamboflar, o'ymakorlar va naqqoshlar ijod qilganlar. Bu borada Buxoro xalq san'atining har bir turi yuksak professionallikka erishgan.

Hozir Respublikamizning barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy san'atning noyob turlari o'zining taraqqiyot bosqichida ko'p yillar va asrlar bosib o'tgan yo'lida goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan. Buxoro shahrida kashtachilikning ko'plab nodir turlari ishlab chiqarilar edi. Buxoro shahrida tayyorlangan kashtalar o'zining ko'p katta bo'lmagan shakllari bilan ajralib turadi. Bu kashtalarda Buxoroning ming yillik tarixiga ega me'moriy yodgorliklaridagi g'isht, loy, sopol, koshin devoriy bezaklarning va naqshlarning ta'sirini ko'ramiz. Buxoro shahrida turli millatlar yonma-yon yashaganlar, ularning ko'p asrlik birgalikdagi turmushi shaharning boy, o'ziga xos an'alarini va urf-odatlarini dunyoga keltirgan. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan shahar aholisining aksariyati kosiblardan iborat bo'lgan.

Kashtachilik buyumlarining asosiy iste'molchilarining aksariyati ham ularning o'zlari bo'lishgan, shuning uchun ham bu davrda yaratilgan Buxoro kashtalari yuksak mahorat va nozik did bilan yaratilgan. Bu kashtalar asosan kosibiy oq rangli ip gazlama karbosga sidirg'a shoyiga, atlasga, adrasga va hisoriga sof ipak bilan tikilgan. Buxoro kashtalari asosan yo'rmado'zi, ilmoq, kandaxayol, daravsh, duro'ya uslublarida bajarilgan.

Buxoro kashtasida yuksak mahorat bilan qo'llanilgan yo'rma choki buyum yuzasidagi qo'shimcha qabariq – bo'rtma ko'rinishli naqsh gul hosil qiladi, undagi naqsh gullaridagi ipak iplar ranglarning uyg'unligini ta'minlaydi. Kashta naqshining har bir unsiri igna yoki bigiz bilan yo'rma chokida alohida-alohida tikilgan.

Chok yo'nalishining o'zgaruvchanligi, ipak iplarning buyum sathida tovlanishiga sabab bo'lgan. Buxoro kashtalarining jilosini qimmatbaho olmos qirralarining quyosh nurida tovlanishiga o'xshatish mumkin. Buxoro kashtalarining yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, chevarlar ranglarni juda ustalik bilan qo'llaydilar. Buxorolik chevarlar tikkan kashtalarda havorang, kulrang, binafsha rang, pushti rang, qumrang, sariq rang, tillo rang, qizil rang, malina rangi, yashil ranglar o'zaro uyg'unlik hosil qilgan. Ortiqcha ranglarning yo'qligi, ranglarning bir-biriga o'ta mayinlik bilan almashuvi Buxoro kashtalariga o'zgacha viqor bag'ishlaydi.

Buxoro kashtalari tikilishida har bir so'zanada bir naqsh har xil hal qilinadi, shu bilan kishida naqshlari xilma xil ekan, degan tasavvur qoldiradi. Alohida gulli va xonalari har xil rangli motivli, hoshiyasi go'zal islimiy naqshli, markaziy maydonda shoxlar va turli rombsimon kompozistiyalar ko'p qo'llaniladi, bu esa Buxoro kashtachiligini yanada go'zal qilib ko'rsatadi.

Buxoroning nafaqat XIX asr so'zanalari, takiyapo'sh yoki joypo'shlari, balki joynamozlari ham yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Chizmakashning hunari avloddan - avlodga o'tib borgan, ular hunari sir saqlangan. So'zana kompozistiyasi aksariyat hollarda simmetriyaga asoslangan. Asrlar bo'yi yig'ilib, avloddan avlodga avaylab-asrab kelangan an'analar doirasidagi bu poyonsiz boylik, undagi cheksiz xilma xillik bu o'ziga xos xalq san'atining bebaho xususiyatini tashkil etadi. Kashtachilik san'atining qaysi markazi boshqasiga qanchalik ta'sir etgan bo'lmasin, u eng avvalo o'zi shakllangan hududda rivojlangan va aynan shu erga xos belgilari bilan boshqasidan farq qiladi.

1.1. SHOFIRKON KASHTACHILIK SAN'ATI

MAKTABINING TAHLILI

An'anaviy xalq san'ati markazlaridan biri ko'hna Buxoro shaxridir. Bu shahar Buyuk Ipak yo'li chorraxasida joylashganligi, qadimdan Movarounnahr poytaxtlaridan biri bo'lib, boshqa ko'plab mintaqaviy shaharlar madaniyati, adabiyoti va san'atining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Buxoroda ipak kashtachiligi juda qadimdan rivojlangan. Eramizning II asridan boshlab O'rta Osiyoga Xitoydan ipak keltirilgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Buxoroga xam shu davrlarda ipak qurti keltirilib, ipak etishtirila boshlaganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Aynan kashtachilik san'atining oltin davri XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro shaxrida kashtachilikning ko'plab nodir turlari ishlab chiqarilar edi, bu kashtalar o'zining ko'p katta bo'lmagan shakllari bilan ajralib turadi.

Buxoro milliy kashtachiligida Shofirkon kashtalari o'ziga xos alohida o'rin egallaydi. Shofirkon Buxoro shaxridan 25 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Shofirkon so'zining kelib chiqishi Vardonze qo'rg'onining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu haqda X asrda yashab o'tgan mashhur tarixchi olim Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi» kitobida batafsil yozadi. Vardonzening bunyod bo'lishi V-X asrlarga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoga ko'chmanchi va chorvadorlarning kelishi Turk xoqonligining o'rnatilishi bilan bog'liq. Bu davrda Shofirkonda Vardonxudot o'z davlatiga asos solgan. Arablar istilosidan keyin vardonxudotlar podsholigini buxorxudotlarga tobe qilib qo'ydi. Akademik Ya.G'ulomovning arxeologik va etnografik kuzatishlarida Vardonze XIX asrning oxirlarigacha savdo va hunarmandchilik shaharchasi bo'lib kelganligini ko'ramiz.²

Buyuk Ipak yo'li O'rta asrlarda shu shahar orqali o'tgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan Shofirkon markazi Xoja Orif qishlog'iga ko'chgan. Buxoro amirligi davrida Shofirkon yirik bekliklardan biri bo'lgan. Bu erda hunarmandchilikning zargarlik, kulolchilik, chitgarlik, qolinboflik, namatchilik va kashtachilik turlari qadimdan rivojlangan.

1. Muxammad Narshaxiy «Buxoro tarixi». O'zbekiston. Fan. T. 1966 yil. 22-23 betlar.

2. Yu. S. Muxtor, K. Bobomurod «Shofirkon tarixi». T. 1998 yil. 8-bet.

Buxoro kashtachilik maktabiga mansub yuzlab kashtachilik buyumlari so'zana, takiyapush, joypo'sh, tanpokkun, do'ppi, oynaxalta va boshqalar Shofirkonlik chevarlar tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida bajarilgan. Buxoro Davlat muzeyi kolleksiya-sida saklanayotgan 600 ga yaqin kashta buyumlarining 144 tasi Shofirkon kashtalari, Toshkent, Samarqand va boshqa shahar muzeylarida saqlanayotgan Buxoro kashtalari orasida ham o'nlab Shofirkon so'zanalari yig'ilgan. Shofirkon tumanining bir tomoni bepoyon cho'l Qizilqum burxonlari bilan o'ralgan bo'lsa, ikkinchi tomoni yashil vohaga qo'shilib ketgan. Shuning uchun ham kashtalarda ham kulrang, moviy osmon rangi, tilloyi sariq rang, binafsha va qizil ranglar bilan yonma-yon go'zal bir uyg'unlik kasb etadi. Shofirkon kashtalari asosan bigiz bilan yo'rma uslubda tikilgan va daravsh, deb atalgan. Ayrim hollarda bosma, qarsdo'zi va duro'ya uslublari ham ishlatilgan.

Buxoro kashtalari asosan oq tabiiy karbosga bajarilsa, Shofirkon kashtalari sariq, oq, malla, yashil, siyox rang, shoyi va xisori matolariga ham tikilgan. Kashtalarda markaz va burchaklarda bo'rtib ko'rinuvchi yopiq kompozitsiya ko'proq uchraydi. Bunda asosiy motiv davra-turunj hisoblanadi. U gulidan ham ko'rinib turadi. Davra - turunj detallari o'zining turli-tumanligi bilan kishini hayratda qoldiradi: ular konstantrik aylanaga sektor va yulduz kabi shakllarda bo'lib, hammasi motivni yangi variantlar bilan ayrim-ayrim bo'laklarga ajratiladi. Shu bilan birga ko'p qismlarga alohida chiziqlar, kvadratlar va ingichka ornamentli shakllar yordami bilan qo'shimcha bo'laklarga bo'linadi. To'q zangori havo rangga, sariq rang tilla rangga, qirmizi rang och malina rangga yaqin tikiladi. Shu bilan birga so'zanada qarama-qarshi ranglarning uyg'unlashishini ham ko'ramiz: binafsha rang sariq rang bilan, ko'k rang qizil va boshqa ranglar bilan uyg'unlashadi. Har bir shaklning hoshiyasi och qizil va qora chiziqlar (ilmoqli tikishda) bilan o'rib tikiladi. So'zana gulida o'n to'rt va hatto undan ko'p rangli ipak kashtalari va ular bir butun jiddiy kalorit hosil qiluvchi qirmizi malina, och ko'kimtir, yashil, qizil va tilla ranglar ko'pchilikni hosil qiladi. Qolgan tomonlardan mayda gullarda ustalik bilan ishlatiladi. Eski so'zanalarda ipning tushib ketishiga asosiy sabablardan biri bo'yoqchilar anor po'stidan foydalanmaganliklari, shu sabab iplar 60-100 yilda tushib ketishi mumkin,

bu hol kashtaning bundan yuz yil va undan ham ko'proq vaqt o'tganidan darak beradi.

XIX asrdan qolgan eng yaxshi kashtalar 1850-1870 yillarda tikilgan. Bundan oldingi XIX asrning birinchi yarmida tikilgan kashtalar haqida juda kam ma'lumotlar bor. Shofirkon kashtalarining nodir namunalari hozirgi kunda jahonning ko'plab muzeylari, shaxsiy kolleksiylarida saqlanib kelmoqda. Vatanimizning etakchi muzeylari kolleksiylaridagi noyob Shofirkon so'zanalari bu hunarning shofirkonlik chevarlar san'at darajasiga ko'targaniga guvohlik beradi. Shofirkon kashtachiligining tipik namunasi XIX asrning ikkinchi yarmida tikilgan nimso'zana yostiq ustiga yopiladigan kichik namoyon yo'rmado'zi uslubida bigiz bilan tikilgan. Asosi oq rangli kosibiy bo'z. Nimso'zana 4 bo'lak ensiz gazlamani bir biriga tikib yaxlit taxta hosil qilib, unga to'rtburchak shaklida markaziy kompozitsiya joylashtirilgan.

Asosiy naqsh doira shaklidagi olti bargli to'rtbarggul hisoblanadi. Uning atrofida to'rt burchagida dioganallar bo'yicha chorbarg va safsargul nusxalari tushirilgan. Gullar romb shaklida ikkitadan shoxcha barglar bilan chegaralangan. Markaziy to'rtburchakda 10 ta to'pbarggulli doiralar, uning girdi islmiy naqshli ikkita tor va markaziy maydondagi naqshni takrorlovchi keng hoshiya bilan o'ralgan.

XX asrning boshlarida Shofirkonda tayyorlangan joynamoz - malla kosibiy bo'zga yo'rmado'zi, kandaxayol chokida bajarilgan. Kompozitsiyasi mehrobli, uch tomonidan enli hoshiya bilan o'rab kashta tikilgan. Yuqori qismi arkasimon qismiga naqsh tikib to'ldirilgan. Tor va keng chizimli hoshiyalarda o'simliksimon naqshlar joylashgan. Keng hoshiyada butaguli, tor hoshiyada islmiy naqshlari ko'k, zangori, yashil, qora, sariq, qizil, oq, qirmizi rangli iplar bilan tikilgan. Mehrobning ichkari tomoni tishsimon to'lqinli mavj naqshi bilan chegaralangan.

Daravsh uslubi - bu uslubni Buxoroda bigiz bilan kashta tikishga aytadilar. Daravsh (bigiz tojik tili) bilan tikishda ipak iplar avvalo kalava shaklida o'raladi va iplarning biri o'ngga, ikkinchisi chapga aylantirilib, tob solinadi, shundan so'ng ular birlashtirilib, ikki ip bir ip qilinib o'raladi va kichik koptok shakliga keltiriladi. Daravsh bilan kashta tikilganda tikiladigan matoning yuza tomoni taxminan 30 - 45 gradus qiyalikda tutiladi va ip matoning ostidan chap qo'l barmoqlari bilan bigiz

uchiga ildirib turiladi. Bu konturi kashta naqshi bo'ylab yo'rma chok tugagach, kashta zanjiri naqsh ichkarisiga qarab davom ettiriladi, ip tugagach, orqa tomondan ulab turiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Shofirkon kashtachiligida qarsdo'zi uslubi ham ishlatilgan. Bunda asosiy ishni o'ng qo'l bajargan. Kashtachi oldiga olgan matoxni oyoqlari bilan va chap qo'l yordamida tortib turib tikkan. Naqshlar choklanganda iplar ustidan ko'ndalangiga bir xil masofada bog'lab chiqilgan. Qarsdo'zi uslubida ko'ndalang bog'lar ostki uzun choklar ustiga davomli joylashtirilgan. Ba'zan ostki bosma chokli iplar soni bir nechta bo'lishi mumkin. Ko'ndalang choklar kashta ustida parallel yo'llar hosil qilganligi "iroqi" chokini eslatadi. O'zbekiston Davlat San'at muzeyidagi so'zanasi, hajmi 246×170 sm oq kosibiy matoga qarsdo'zi uslubida bajarilgan. O'simliksimon naqshlar ipak iplar bilan tikilgan, hoshiyada naqshlar markaziy maydondagilarga o'xshamaydi.

Markazda shoxchagullar, keng hoshiyada doirasimon rozetkalar joylashgan. O'simliksimon naqshlar markaziy maydon motivini uyg'unlashtirib yuborgan. Mayin ranglar so'zanaga nafis ko'rinish kasb etgan. Zangori, kulrang, sarg'ish ranglar, qizil, to'q qizil ranglar bilan qo'shib, ranglar tuzilishini tashkil qiladi. Gullari o'simliklardan tashkil topgan Shofirkon kashtalaridagi naqshlar tabiatning abadiy uyg'onishi timsoli bo'lib, erdagi hayotbaxsh kuchlarning poetik jihatdan ulug'lanishi ramzi bo'lib xizmat qilgan.

Shofirkon chevarlari eng ko'p ishlatadigan naqsh mavzulari doiragul, to'pbarggul, gulisafsar, chinnigul, namozshomgul, bodom va qalampir kashta buyumlariga o'zgacha chiroy va go'zallik bag'ishlagan. Hozirgi kunda Shofirkon tumanida milliy kashtachilikni rivojlantirish maqsadida kashtachi Zuxro Obloberdieva tomonidan kasb-hunar maktabi ish olib bormoqda. Bu erda milliy hunarmandchiligimizning kashtachilik, zardo'zlik, bo'z tikuvchilik, rang tasvir, kosibchilik guruhleri ochilib, xalqimizda qadim-qadim zamonlardan beri asrab-avaylab kelingan xalq hunarmandchiligi sirlarini o'rgatishmoqda.

Qo'li gul ustalardan bo'lmish Zuxro Obloberdieva 1953 yil 5 martda Buxoro viloyati Shofirkon tumani Urganji qishlog'ida kashtachilar oilasida tavallud topgan. 1962 - 1972 yillarda Shofirkon tumanining Hamza maktabida tahsil olgan. 1972 yilda



Buxoro Pedagogika bilim yurti Badiiy Grafika fakultetiga o'qishga qabul qilindi. O'qishni bitirgandan so'ng 1976 yilda Shofirkon tumani Al-Buxoriy maktabida rasm va chizmachilik o'qituvchisi bo'lib ishga kirdi.

1985-90 yillarda Nizomiy Pedagogika Universiteti Badiiy Grafika fakultetini o'qib tugatdi. Zuxro Obloberdieva 1990 yildan boshlab kashtachilik bilan shug'ullana boshladi. 1994 - yildan viloyat ko'rik tanlovlarida qatnasha boshladi. 1996-97 yillarda Qozoqiston – Olma-ota, Bishkek savdo yarmarkalarida qatnashib kelgan. 1997 - yil fevralda Hindistonda joylashgan Haydarobod shaxridagi Daskar universitetining tabiiy bo'yoqlar bo'yicha fakultetini 1 yil mobaynida tugatib keldi. Hindiston ustozlaridan ipakni tabiiy bo'yoqlarda bo'yash sirini o'rgandi va ko'pgina davlatlarning ko'rgazmalarida qatnashib kelgan. Shulardan, 1998 yilda Yaponiya, Franstiya, 1999 yilda Germaniya mamlakatlarida bo'lib kelgan. 2002 yilda «Tashabbus» tanlovida eng yaxshi tadbirkor ayol nominastiyasi g'olibi bo'ldi. 2003-2005 yillarda Yaponiya, Franstiya, Germaniya, Qozoqiston mamlakatlarining ko'rgazmalarida qatnashib keldi.

2002 yilda Viloyat hokimi topshirig'i bilan Shofirkonda 6 yillik shartnoma bilan kashtachilik maktabi joriy etildi, uning rahbari etib Zuxro Obloberdieva

tayinlandi. 2009-yilgacha Zuxro Obloberdieva 700 ga yaqin shogird tayyorladi. Zuxro Obloberdieva kashtachilik san'atida to'rtinchi avlod vakili hisoblanib, u kishigacha Zubayda Obidova, Nusratbibi Obidova, Zulayho Boboevalar ustozlik qilishgan.

Hozirgi kunda Zuxro Obloberdieva beshinchi avlod vakillari bo'lmish o'z qizlari Nigora hamda Dilafruz Rahimovalarga o'z san'ati sir-asrorlarini o'rgatib, kashtachilikda yangi asarlar yaratib kelmoqdalar. XIX asrning 80 yillarigacha Shofirkonda yirik dekorativ kashtalar xonaki oq karbosga sariq rangli malla matoga tikilardi. Hozirgi kunda ham oq xonaki karbosga, o'zlari tayyorlagan tabiiy bo'yoqlarda, ipak iplarda kashtalar tikish yo'lga qo'yildi. Tabiiy bo'yoqlar tayyorlash texnologiyasini tiklash va uni rivojlantirish olib borilmoqda.

Shofirkon kashtachilik san'ati qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari, badiiy uslublari mavjud. O'ziga xos ish qurollari ham mavjud bo'lib, ular: igna, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, angishvona, to'g'nog'ich va qaychidir, katta tikiladigan bigiz ilmoqli, yog'och dastali bo'ladi.



1.2. KASHTACHILIK SAN'ATIDA RAMZIY NAQSHLAR MA'NOSI

Bizgacha etib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab o'rganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim - qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan takomillashib, uyg'unlashib, boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yo'nalish va naqshning turli xillari saqlangan. Shofirkon kashtalari shakllari, kompozistiyasi va naqshlariga ko'ra Buxoro kashtalariga yaqin turadi, ammo ularda ko'proq o'simliklar dunyosi va turli predmetlar (kord) - pichoq tasviri, ko'zacha va oftobalarining, qushlar va toshbaqa, chayonlar tasvirining uchrashi Nurota kashtalarini xam eslatib turadi. Asos matoxlarining rangining ochiqqligi, gullarning yorqin tusi, yo'rma chokining bigizda donador qilib tikilishi esa Shaxrisabz kashtalariga o'xshab ketadi.

Shofirkon kashtalarida ko'p uchraydigan naqshlar: to'pbarggul, bodom, qushbodom, qalampir, savsargul, shoxchagul, butagul va boshqalar, O'rta Osiyoda islomning tarqalishi natijasida dunyoga kelgan bezak san'atining boshqa turlarida ham ko'p uchraydi. Ayniqsa Shofirkon kashtalarida bu usul nihoyatda xalqchil shakldagi ko'rinishiga ega bo'ldi. Hayotdagi real ko'rinishdagi tasvirlarning ramziylashgan ko'rinishini oldi. Shofirkon kashtalarining kompozistiya tuzilishi ko'p hollarda simmetriyaga asoslansada naqshlar va naqsh unsurlari erkin joylashtirilishi yirik shaharlar ulug'vor kashtachiligidan uni ajratib turadi.

Shofirkon kashta naqshlarida kishilarning tabiat hodisalari, hayot haqidagi tasavvurlari aks ettirilgan. Kashtachi o'z ijodiy fantaziyasini har bir so'zana detallarida namoyish qilishga harakat qiladi. U gullardan – yulduzlar, guldastalar, oy, quyoshni tasvirlaydi. Gullarning novdalarini tasvirlab, ular shoxchalarga silkinib, nafis butoqlarda osilib turgandek namoyish qilinadi. Kashtachi tabiat manzarasini tasvirlar ekan, u borliqdagi bor o'simliklarni, hayvonot olamini, uy - ro'zg'or buyumlarini, hatto inson suratlarini ham tikishga, tasvirlashga harakat qiladi.

Naqshli bezaklarda o'simliksimon islimiy naqshlar - hayotning davomiyligi, avlodlar kelishini; gullarning chaman bo'lib ochilib turishi - baxt, quvonch va shodliklarga to'la hayot orzusi; quyosh - yorug'lik, issiqlik, mo'l hosil; oy - baxt va



visol, osoyishta baxtli hayot; oftoba - mo'l-ko'lhilik, baxtiyorlik; ko'za, suv - dehqonning umidi, hosilning mo'l bo'lishi, oilada fayz-baraka, seroblik, serfarzandlik (ko'za, oftobalar asosan so'zananing yuqori burchaklarida tikiladi).

Qushlar tasviri ham qadimiy san'atga xosdir. Qadim-qadimdan biror ishni boshlashda, shu ish yaxshi, saodatli bo'lish niyatida qushlar tasviri tushirilgan, shu sababli hashamatli bog'larda qushlarni boqish odat bo'lgan. Kashta naqshlaridagi barglar bir necha shaklda: tuxumsimon, atirgul yaproqlari singari qirrali, archasimon, serbarg va turli shakllardagi, bosh barglar shaklida bo'ladi. Meva bezaklari ichida

anor tasviri ayniqsa katta o'rinni egallaydi. Anor hosildorlik ramzi bo'lib hisoblanadi. Uni Anaxita haykali qo'lida eramizning boshlarida qurilgan (I-Vasr) Ossuriylar devorlaridagi naqshlarda ham uchratishimiz mumkin. Anor juda sodda shaklda beriladi: dumaloq ko'rinishi va uchidagi gul kosachasigina tasvirlanadi.

O'simliksimon bezaklarning ichida eng keng tarqalganlaridan yana biri lola, bodom yoki qalampir tasvirlari bo'lib, ular juda ko'p shakllarga ega. Bundan tashqari rang - barang iplar bilan tikilgan doira gullari ham mavjud bo'lib, ular ma'lum guruhlarga bo'linadi. Ular, zaboncha, oftobacha, ko'zacha deb ataladi. Toshkentda doira gul, oy, Buxoro va Nurotada moh(oy), Samarqandda lola deb yuritiladi. Naqshlarda buyum tasviri ko'p ishlatilishi mumkin, masalan, ko'za tasviri. Ko'za yoki choynakka ba'zan shoxcha solib qo'yilib, uni tangacha bezaklar bilan bezatiladi.

XIX asr kashtalarida uchburchak shaklida ham tumorlar tikiladi, u har qanday yomon ko'zlardan asrashini bildiradi. Bulardan tashqari kashtalarda qushlar tasviri ham uchraydi. Ular tovu, qirg'ovul, o'rdak, xo'roz va boshqalar. Qushlar kashtada shunday ustamonlik bilan joylashtiriladiki, ularni bir qarashda aniqlab bo'lmaydi. Masalan, qush patlari dekorativ uslubda tikilgan, dumi va tanasi turli



rangdagi ipaklarda tikilgan bo'ladi yoki qush tanasi yarim oy shaklidagi turli rangli ko'ndalang qismlarga bo'linadi va ular turli rangdagi ipak iplarda tikiladi. Agar qadimiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, kashtachilikda qushlar tasviri Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasi bilan bog'liq ekanligining guvohi bo'lamiz va bu an'ana juda qadimdan davom etib kelganligini yaqqol sezamiz. Masalan, Sankt-Peterburgning Ermitaj muzeyida saqlanib kelinayotgan so'zanada shoxchani cho'qib turgan va tumshug'ida shox saqlab turgan qush bezagini uchratamiz. XIX asr oxirida kashtachilikda qushlarga juda kam e'tibor berilgan va ular so'zananing bir chetida kichik hajmda tasvirlangan.

Shofirkon kashtalari ko'proq xalqchil ko'rinishga egadir. Shofirkonlik chevarlar XIX asrning oxirlarigacha so'zana, joypo'sh, joynamozlar uchun asos sifatida ko'proq uyda to'qilgan oq mato bo'z va sarg'ish rangli malladan foydalanishgan. Keyinroq

binafsha, to'q sariq, och yashil rangli xonaki maxalliy matolar bilan birga chetdan olib kelingan oq va rangli ip gazlamalardan ham foydalanilgan. Kashtalarga gul solish uchun mahalliy sharoitlarda ishlab chiqarilgan, tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan ipak iplar ishlatilgan. Buxoro kashtachilik maktabida Shofirkon kashtalari o'ziga xos alohida o'rin egallaydi. Shofirkonda ipakchilik qadim davrlardan taraqqiy etgan. Kashtachilik esa xalq ijodining eng ommaviy shakli bo'lib kelgan. Uylarga bezak berish san'atining barcha soxalarida tajriba avloddan – avlodga o'tish usuli bilan rivojlanib borgan. Har bir kashtado'z o'ziga xos yagona tikish usulini yaratishi bilan kashta go'zalligi sayqalanib borgan.

Husnixatda har bir hattot qanday yozuv uslubiga ega bo'lsa, kashtachi chevarlar ham shunday uslubga egadir. Bir kashtachining bir xil uslubi, shunday

uslubda tikilgan boshqasinikeydan farq qiladi. Kashta san'atining go'zalligi ham shunda o'z aksini topgan.

Kashtachilik hamma vaqt ham faqat xotin-qizlar hunari hisoblanib, uy ro'zg'or tashvishlaridan bo'sh vaqtning bari shu hunarga, u orqali xonadonni ko'rkam qilishga qaratilgan. U xalq turmush madaniyatining estetikasida ham o'z aksini topgan. Shofirkon kashtalarining nodir namunalari hozirgi kunda jahonning ko'plab muzeylari, shaxsiy kolleksiylalarida saqlanib kelmoqda. Vatanimizning etakchi muzeylari kolleksiylalaridagi noyob Shofirkon so'zanalari, bu hunarning shofirkonlik chevarlar san'at darajasiga ko'targaniga guvovlik beradi.

XX asrning 20-30 yillariga kelib o'zbek kashtachiligida kuzatilgan bezak va naqshlardagi sifat o'zgarishlari Shofirkon kashtalariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. An'anaviy naqsh silsilalari o'rniga, naqsh chiziqlari qo'pollashgan, tasvirlar jo'nlashgan, ortiqcha bezaklar yo'qolgan, bo'yoq ranglari yorqin tus olgan holni ko'ramiz. Ming afsuski, asrlar bo'yi shakllanib XIX asrda o'zining yuqori bosqichiga chiqqan an'anaviy Buxoro kashtachilik maktabining yana bir yirik markazi inqirozga yuz tutdi.

Shofirkon kashtalarining hajmi turlicha bo'lib, ular yaxlit manzarani kashf etadi. Takiyapo'shlar so'zanalarga qaraganda kichikroq bo'ladi, kompozitsiyasi so'zanaga o'xshash bo'ladi. Joynamoz va nikoh choyshabi (joypo'sh)ning gullari boshqacha bo'ladi, markazida gul tikilmaydi va mehrobli bo'ladi. Joynamozning oyoq tomonidan hoshiya tikilmaydi, ochiq qoldiriladi. Bug'joma: (bug'cha) kunduzlari o'rinni o'rab qo'yish yoki turli xil buyumlarni tugib qo'yish uchun ishlatiladi. Uning markaziga to'rt burchak shaklida ornament tikiladi, goxida bir burchagiga gul tikilgan bo'ladi. So'zanalar tikish bir yarim ikki yil davom etgan. Agar qizni turmushga chiqishi tezlashtirilsa unda qarindosh-urug'lari, dugonalari va hamsoylari to'yga qadar tugatish maqsadida yordamga keladilar. Gul chizilgan mato bo'lak - bo'lak bo'lib tikilgan va oxirida birlashtirilgan. Kashtalarga qalamqosh yoki chizmakash, deb nom olgan talantli xalq rassom - chizmakash ayollari gul chizganlar. Chizmalar o'lchamsiz asosan ko'z bilan chamalanib chiziladi.

Har bir hududning o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu o'sha chizmakashning mahoratini, uning tabiati, o'rab turgan muxitning qanchalik aniq va keng bilishiga

bog'liq bo'ladi. Ular asosan qadimdan qolgan chizmalarni asos qilib olsalarda, chizmalarga o'zlarining fantaziyalarini qo'shib borganlar.

Shofirkon kashtalarining o'ziga xos xususiyati hammani maftun etib olishida, ularda bir xil elementlarning uchramasligi va mexanik ravishda qaytarilmasligidadir. Kashta tikish paytida barmoqlarga bigizning ilmog'i zarar etkazmasligi uchun maxsus barmoqqa kiydiriladigan asbob noxunak – tojikcha so'z bo'lib, noxun tirnoq, tirnoqqa kiydiriladigan ma'noni bildiradi. Buxoroda bigiz daravsh, deb yuritiladi.

Daravsh bilan tikishda ipak iplar avval kalava shaklida tayyorlanadi, so'ngra bo'yaladi. Bo'yalganidan so'ng kalava qayta koptok shaklida o'raladi va iplarning biri o'ngga, biri esa chapga aylantirilib, tob solinadi, shundan so'ng ular birlashtirilib, ikki ip bir ip qilinib o'raladi va kichik koptok shakliga keltiriladi. Daravsh bilan tikilganda tikiladigan matoning yuzi tomonidan taxminan 30 - 40 gradus qiyalikda so'kiladi va ip matoning ostidan barmoqlar yordamida berib turiladi. Yo'rma chok bilan tikilganda tikish gul konturi bo'ylab yo'rma chok zanjiri davom ettiriladi, chetki kontur tugagach, gulning ichiga turli tasvirlar tikib chiqiladi. Katta gullarni yo'rma zanjiri bilan to'ldirishda kashtachilar erkin uslubga suyanadilar. Buxoroning, aynan, Shofirkonning yo'rma chok san'ati ko'p qadimiy so'zanalari bilan dong taratgan. Kashta sirtida tugun bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Ip tugay deganda odatda, kashta ostida qoladigan mato qismiga yangi ipning uchi esa kashta tagida qoldirib tikiladi.

Qo'lda tikiladigan kashta 2 ga bo'linadi:

1. Bezatiladigan, tikiladigan matoning arqoq va tanda (o'rish) iplarini sanab kashta tikish.
2. Matoga gul-naqsh, tasvir konturi chizilib, erkin kashta tikish uslubidir.

Arqoq va tanda (o'rish) iplari kesishtirib to'qilgan matoga tikiladi, ch unki bu matoda iplarni sanash qulay. Buxoroda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, bunda kashta gullari ixtiyoriy, turlicha bo'lishi mumkin. Bosma va yo'rma choklarning turli xillari qo'llaniladi: ornament gullari ham shu choklarda tikiladi. Bu choklar ikki turga bo'linadi: bosma va kandaxayol. Ikkalasi ham bir-biriga o'xshaydi. Tikish uslubi: uzun tomonining bir chetidan ikkinchi chetiga ip tortiladi va u ko'ndalang chok bilan tikib chio'iladi.

Keyingi ip oldingi bo'ylama tortilgan ipga yopishtirib tortilib, xuddi avvalgisidek eniga siriladi.

Xondo'zi - bu uslub asosan mayda buyumlarda qo'llaniladi. Lekin ikki tomoni gulli bo'lishi shart bo'lmagan yirik devoriy kashtalar ham tikiladi. Kashtachilik buyumlari o'zining badiiy ko'rinishi, o'ziga xos ifodaviyligi, qulayligi va foydaligi, bezakdorligi bilan diqqatni tortadi. Mana bir necha yuz yildirki, kashtachilik san'ati kelin sepining ajralmas va asosiy negizi bo'lib kelmoqda. XIX asr ohirlariga qadar ayollar kashtaning qo'l mehnatiga asoslangan bosma, yo'rma, kandahayol, iroqi singari choklarini qo'llab kashtachilik buyumlarini yaratib kelganlar.

O'zbekistonning badiiy kashtachiligida ko'plab texnik usullar hozirgi kungacha samarali qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, choklarni yo'rmalash, detallarni mayda pardoqlashga katta ahamiyat berilgan. Tasvirlarning yirik parchalari yoki bir yoqlama tekis bosma bilan tikilib, pishiq, sal-pal bo'rtiq taglik tashkil qilgan, yoki bo'lmasa mayda yarim katak shaklidagi naqshning ustki qismini dona-dona qilib ko'rsatuvchi iroqi, yoki ta'sir kuchi aniq hisobga olingan qimmatbaho toshlarning tovlanishiday taassurot tug'diradigan to'qima baxyali yo'rma tikiladi. Yo'rma ko'pincha jiyaklarga va naqshlar tarhini ajratishga ishlatilgan. Shuni aytish kerakki, har bir bahya ko'plab variantga ega bo'lgan. Kashtachilik san'atining har hil markazlarida tikishning muayyan usulini afzal ko'rishgan, bu esa mahalliy uslublarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Kashtalar naqshlari bir necha guruhga ajratiladi: ramziy-alomatli mavzular, o'simliksimon, garih (handasaviy), hayvonlar tasviri (zoomorf uslubi), antromorf (odam tasvirli) mavzular, maishiy hayot buyumlari va epigrafik (yozuvli) naqshlar. Kashtachilikning Toshkent, Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Farg'ona singari mahalliy maktablari mavjud. Hozirgi kunda O'zbekistonning qishloqlarda yashaydigan aholisi qo'l hamda tikuv mashinalari kashtachiligi bilan ommaviy tarzda shug'ullanishmoqda.

Ramziy - alomatli mavzu o'zbek kashtachiligining muhim ahamiyatli naqshli guruhlaridan biridir, kelib chiqishiga ko'ra ular birmuncha qadimiy va halq san'atining qatlamlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ularning saqlanib qolishi,

birinchidan, kashtachilik san'ati juda ko'hna ildizlarga ega ekanligini, ikkinchidan, san'atning bu turida an'anaviy shakllarning qat'iyligini bevosita belgilab turadi.

Birmuncha keng tarqalgan belgili ramzlar sarasiga quyosh, oy va yulduzlar turkumi tizimidagi belgilar kiradi. Bu belgili ramzlar izohidagi jihat ularning xalq nazmi va folklor tasavvurlar bilan bog'likligidir.

Nazmiy-folklor qiyofalarning nusxasi (ekvivalenti) bo'lib keladi. Aylana, romb, xoch, to'lqinli va to'g'ri chiziqlar xalq san'atida birmuncha qadimiy (arxaik) mavzular sanaladi. Zero, aylana, romb, va xoch yagona g'oyaviy ma'no kasb etib, ular quyosh ilohasining ramzi yoki ajralmas unsurlari bo'lib kelgan. Dunyoning boshqa xalqlari singari O'rta Osiyo halqlarida aylana quyoshning, ayniqsa, oy (to'lin oy g'oyasi akslantirilishi)ning ramzi bo'lgan. Aylana (doira) yovuz kuchlardan saqlovchi tumor, shuningdek, Olloh va koinot ramzidir. Aylana eng mukammal shakl bo'lib, to'la-to'kislik va baxtning alomatidir. Islom davridan ilgari davrdan oldin paydo bo'lgan motivlardan biri chaxar chiroq (to'rt chiroq) markaziy qismdan rozetka va undan to'rt o'tkirli oval gullardan tashkil topgan. Bu chiroq va uning piltalari uchun mo'ljalangan nasadkalari, o'tkir tillari olovning tillarini eslatadi. Katta bo'lmagan naqshlar, olov ramzlari O'rta Osiyo xalqlari diniy marosimlarida olov ximoya kuchini o'ynaydi.

Olovni kelin kuyovlar, go'daklar va tuqqan ayol xonasida o'chirish mumkin bo'lmagan. Kashtachi ayolning san'ati, uning nozik didi kashta buyumini bezashda o'z ifodasini topadi. Yorqin rangli iplar bilan kashtalangan kashta buyumlari naqsh san'atining nozikligi va go'zalligi bilan ajraladi. Biroq, XIX asr oxirlariga kelib shakldagi singari ranglar echimida sezilarli tarzda soddalashtirilganlik ma'lum bo'ladi. Mevalar mavzusi orasida bodom yoki buning o'xshash shakli qalampir mavzusi ham juda ommaviy bo'lib, bir qancha ko'rinishlarga ega bo'lgan. Ravshan bo'ladiki, u o'zining kelib chiqishiga ko'ra o'simliksimonlardan emas, balki hayvonot olamiga shakliga mansubdek, uning g'oyaviy-mantiqiy ahamiyati yo'qotilgan. Bodomning turli shaklli naqshlarini o'rganib chiqish bu naqsh qismlarining doimiy to'kilib, uzilib turishini ko'rsatadiki, u o'tmishda birmuncha tushunarli bo'lgan tustovuq shaklidagi naqshlarni xususiyatlaydi. Hayvonlarning tasvirli ramzlari O'zbekiston san'atida qadim davrlardan bo'yon an'anaviydir.

Hayvonlar yoki odam tasviri naqsh unsurlarini to'ldirish maqsadida, ayniqsa, ularning bezaklari gulli-naqshlar bilan bog'liq bo'lgan bir paytda, kashta buyumlarida ko'p uchraydi.

Shunga qaramay, biz qushlar va baliqlar tasviriga yoki ma'lum hayvonning alohida qismlariga (xalq san'ati uchun an'anaviy bo'lgan qismdan yaxlitlik tasvir uslubi) ko'pincha duch kelamiz. Ko'pincha hayvonlar mavzusi xalq san'atida shaklni yuzaga keltirishdagi umumiy uslub deb, tushuntirilgan o'simliksimon naqshlarga o'xshatiladi, ular keng ommalashgan. Turli tasvirlar bilan yashirilgan kompozistiyada, birdaniga barg va bodom shaklida dumi yoki toji gullar bilan bezatilgan baliq yoki qushni ko'rishimiz mumkin. Ba'zi hayvonlar tasvirli kompozistiyalar ma'naviy jihatlari mavzuning umumiy mohiyatiga ko'ra tushuniladi. Masalan, suv bilan bog'liq baliq qachonki buta asosida tasvirlansa, odatda, baliq hosildorlik ramzi bo'lishiga qaramasdan, mohiyatan u suvning hayotbaxshligi bilan bog'liq holda tushuniladi.

Boshqa mavzular ham, xuddi shuningdek, ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Qushlar tasviriga aloqador holda, masalan xo'roz, to'vus singarilar ham ko'p ma'noli sharxlarga ega. Bular faqatgina qalb haqidagi tasavvurlar bilan aloqadorlikni aytib o'tganimizda shuningdek, qushning vazifasi ikki olam o'rtasidagi vositachi ekanligi tushuniladi. Xo'rozlar tasviri



(xo'rozlar haqida tojlariga ko'ra munozara yuritish mumkinligi) XIX asrga tegishli Shahrisabz kashtasidagi nishonli kompozistiyasida bir necha marotaba takrorlangan. Bu qushlarning tanasini nishon markazida (ular markaziy kichikroq aylananing asos aylanasi bo'yicha joylashtirilgan), shuningdek, o'rta maydonning ingichka qismida qo'shaloq holda va hoshiyada ya'ni arab harflarida bitilgan jimjimador lavhalar ichida qushlar qiyofalari galma - gal takrorlanadi. Buyumli naqshlar mavzulariga, avvalambor, suv uchun mo'ljallangan qumg'on (oftoba) kiradi. Oftoba, ko'pincha, islom uchun zaruriy unsur bo'lganligi bois, diniy-marosimiy pokizalik ramzi sifatida talqin etiladi. Biroq u suvning ramzi ham bo'lib keladi, bu bilan uning jonbaxsh quvvati inobatga olinadi.

Lekin tasvirda barglar va chirmashuvchi poyalar orasida uni ajratib bo'lmaydi. Oftoba tasviri Shahrisabz do'ppilarida va kashta buyumlarida ko'p uchraydi, va asosan o'rta ingichka maydonda va hoshiyada tasvirlanadi. Oftobaning shakli uncha katta bo'lmaganligi bois, yirik butalar va gulli to'pbarggular orasida ko'rimsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun kashtado'zlar ularni tasvirlashda har biriga alohida ranglarda fon berib ajratib ko'rsatishadi. Navbatdagi kompozistion mavzu sifatida islomgacha bo'lgan to'rt chiroq (chor chiroq) qaraladi. U markaziy to'pbarggul va undan chiqqan tuxumsimon gullardan tashkil topgan. Bularning barchasi pilik uchun mo'ljallangan to'rt ilmoqli moychiroq sifatida izohlanadi: ularning uchlik shakllari olov tillari singari talqin etiladi.



Epigrafiq naqshlar ham kashtalarda ko'proq XIX asr do'ppilarida uchrab, asosan Buxoro va Shahrisabz maktablariga xosdir. Shu bilan birga qayd etish lozimki, amaliy - bezak san'ati buyumlariga yozuvlarining kiritilishi amaliyotda tarqalgan. Sharq san'atida yozuv o'zida muqaddaslik xususiyatini namoyon etadi va uning buyumlarda ifoda etilishi o'sha buyumga muqaddaslik ramziy alomatini bahsh etadi. Juda kamchilik kashtado'zlar arab harflarini ishlata olganligi bois, yozuv ko'p hollarda tushunarsiz, keskin uslublashtirilgan bo'ladi, shunga qaramay o'qilmaydigan bezakdor yozuvlar amaliy - bezak san'atida ancha - muncha ommaviylashgan.

Tushunarli, o'qilishiga imkon beradigan yozuvlar ham uchraydi, ular Qur'on suralaridan olingan yoki kelinchakka onasi yoki boshqalar tomonidan bildirilgan samimiy tilaklar bo'lgan. An'anaviy naqshlar har xil ko'rinishi yangi va yangi kompozitsiyalarni yaratishga imkon bergan. Har bir usta yangi motivlarni takrorlab qolmasdan, ko'pincha birdagina naqshning yangi kompozitsiyasi yangicha talqin etgan, yoki uning rang uyg'unligini o'zgartirib, kashta buyumiga o'ziga xoslik va noyobligini oshirgan.

Naqshni tuzilishi va uning bezakli va rangli echi, ashyolar fakturasi va kashtachilik texnikasi o'zaro bog'langan va bir birini to'ldirib borib, yagona uyg'unlikni tashkil qiladi. Shunday qilib, buyumlarni kashtalash san'ati O'zbekistonning amaliy bezak san'ati markazlarida asrlar davomida shakllangan va boy an'analarni meros qilgan va xalqning hayoti va an'analari bilan mustahkam bog'liq. Bu bejiz emas, o'zbek kashtachilik san'atida uchraydigan bezak elementlari, real hayotni aks ettiradi va uni anglash, ko'rsatish, shakl va rang mukammalligi bilan hayratlanish natijasidir.

Kashtachilik san'ati bilan azaldan asosan, xotin - qizlar shug'ullanib kelishgan, ko'pchilik naqshlarni ular yaratishgan. Har bir chevar nafaqat ma'lum bir

andozani takrorlagan, balki, tez - tez o'zicha naqsh kompozistiyasini o'zgartirib, uning rang tusini almashtirib borgan, bu esa buyumga alohida husn bag'ishlagan. Shunday qilib, an'analashgan sari bu san'at avlodidan avlodga o'tib, buyumlarning kashtalarida rang - barang va betakror naqshlar paydo bo'lib borgan. O'zbek kashtachilik san'atida uchraydigan bezak unsurlari real dunyoni tasvir etib, uning anglashning o'ziga xos vositasi, shakl va rang mukammaligidan hayratlanish ifodasi hisoblanadi.

Buyumlarda va do'ppilarda atirgul, gulsafsar, chinnigul, lola, gultojixo'roz, olam guli kabi gul turlari, bodom, charos, qalampir, anor singari mevalar tasvirlanadi. O'simliksimon naqshlar, tustovuq, xo'roz, bulbul kabi rangni qushlar tasvirlari bilan qo'shimcha to'ldirilgan. Qushlar shakllari yorqin bezaklarda berilgan, ular o'z uslubiga ko'ra naqshlar bilan yaxlit uyg'unlashgan. Chizgilar garchi shartli bo'lsada, ularda tasvirlarni oson bilib olish mumkin. Kashtachilik buyumlarida va do'ppilarda ko'p uchraydigan tasvirlardan biri, qut-baraka va hayot ramzi bo'lgan bodom naqshidir, uning muqobili sifatida nozik va ingichkaroq qalampir naqshi tikiladi.

O'zbekistonda bolalar, birinchi navbatda yangi tug'ilgan go'daklar, shuningdek ko'zi yorigan ayollarni yomon ko'zlardan asrash ma'nosida bodom yoki qalampir shaklida tumor taqishadi, shu bois ularni xalq san'atida ham himoya ma'nosida qo'llashgan. Bodom naqshi shifobaxsh meva va bahor kelganidan darak beruvchi ramz sifatida tasvir etilgan. Yomonlikdan asrovchi sifatida do'ppilarda ko'p tarqalgan naqshlardan yana biri – ilon izidir. O'tmishda ilonga sajda qilish, ilonning sehrli kuch-qudrati haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq.

Buyumlarda boshqa hayvonlar – tog' kiyigi, chayon, qoplonga o'xshash tasvirlar ham tikilgan. Handasaviy naqshlar ham ommaviy bo'lgan. Tik, ko'ndalang chiziqlar va to'g'ri burchaklar chatishuvi komil uyg'unlik deb qaralgan. To'lqinsimon va sochma naqshlar obi hayot to'lqinlari timsolini aks ettirib, ular, dehqonchilikda qut-baraka ramzi bo'lgan. Buyum va do'ppilarning naqsh kompozistiyalarida qator hollarda arab yozuvi kashtaga uyg'unlashib ketgan. Dono so'zlar, samimiy tilaklar va hayotiy iboralar do'ppi kashtasining mazmuni va ifodaviy nafosatini teranlashtirgan. Bu naqsh – yozuvlar bir vaqtning o'zida ko'zlarni quvontirish hamda aqlni peshlash uchun xizmat qilgan.



Davlat muzeyida saqlanayotgan XX asr boshiga mansub, Buxoro erkak do'ppisida arab yozuvida oq ip bilan shunday so'zlar bitilgan: "Quloh, mayli, boshda qolsin, dushman er bilan yakson bo'lsin". Kashtachilik buyumlarida qadimgi ramzlar bugungi kunda o'z ma'nosini yo'qotgan va faqat bezak sifatidagina qo'llanilgan.

Naqshlar mazmunan turli-tumandir.

Islom dinida tirik mavjudotlarni tasvirlash man etilgani uchun, kashtachilikda o'tmishdan boshlab hozirgi kungacha asosan islimiy tasvir qo'llanilmoqda. Rangli echimi naqshning gulli va barglar qismini qarama-qarshiligida hosil bo'lgan. O'simliksimon shakllar va motivlardan tuzilgan kompozitsiyalar - dala va bog' gullari, maysalar va boshqalar o'zining xarakati, ritm, burilish, kashta chetlari kattaligi va to'ldirilishi jihatidan ko'p qirraligi bilan ifodali. Tasvirlanayotgan o'simliklar bezakdorligidan tashqari davolash kuchiga ega ekanligi va ko'pgina davrlarda qo'llanilishi hisobga olinib kerakli o'simliklar tasvirlangan. O'simliksimon naqshlar orasida - atirgul, gulsafsar, chinningul, lolagul, gultojixo'roz, olma guli va boshqalari ko'p tarqalgan, mevalardan esa - anor, olcha, gilos, bodom va garmdori, ko'knori boshlari va hokazolar tasvirlangan, shuningdek lola va nilufargulga yaqin bo'lgan gulning naqshi ko'pincha uchraydi, hamda bu gulga o'xshash tasvir qadimgi san'at asarlarida ham bor. Bu O'rta Osiyo daryolarining hosildorlik xudosi bo'lgan Anaxita ma'budasining ramzlaridan biridir. Gullar shakli ko'rinishi har safar kashtachilar tasavvuri bilan o'zgarib borgan. Naqshning o'simliksimon shakllari shartli, umumlashgan va tekis yuzada bajarilgan, gullar tepa va yon qismida tasvirlangan.

Gullar ichidagi detallar mukammal ishlanib chiqilar edi. Sharq xalqlari san'ati naqsh mohiyati - qadimdan odamlarning borliq haqidagi taassurotlarini mujassamlashtiradigan - belgi ramzlarning o'ziga xos tizimini namoyon etadi. Kashta naqshlari asosida koinot (bizni o'rab turgan olamni eslatuvchi), o'simliklar va hayvonot dunyosi bo'ladimi, bezakli va xo'jalik buyumlari yoki xalqning etnik tarixi bilan bog'liq muhr (tamg'a) va urug' belgisi singarilar bo'lishidan qat'iy nazar, mavjud olam tasviri yotadi. Kashtado'z matoga naqshni tushirar ekan, borliq uyg'unligi taassurotini berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, albatta. Bu muammolar ko'proq o'rta asrlar rassomlarni tashvishlantirgan.

Xalq ustalari asl san'at xazinasiga mansub kompozition jadval va naqshli motivlarni o'zlashtirgancha, ularni boshqacha tus olishida, ya'ni "moddiy" ahamiyat kasb etishida o'z hissasini qo'shganlar. Ular bunda hayot tarzi, tevarak muhit va maishiy turmush unsurlariga tayanadilar. Masalan, gulli kompozistiya ona-tabiatni gullab yashnashini gavdalantiruvchi vaj bo'lishi mumkin. Har bir kashtachilik maktabi, ulardagi naqshlar qadimdan odamlarning tabiat va unga bo'lgan munosabatning ifodasi bo'lishiga qaramasdan, badiiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun O'zbekiston kashtachiligida ko'rkam bog'lar, chamanzorlar singari tasvirli mavzular, ya'ni o'simliksimon mavzular etakchilik qiladi.

Qadim matolardan so'zanalar shakli va mavzulariga kirib kelgan, shuningdek, ilk o'rta asrlar (Varaxsha, Panjikent) devoriy suratlardagi meros ajablantirmaydi. Gulli guldonlar, guldasta, hayot daraxti, ertakona bog'lar manzarasi, daraxtlardagi qushlar, osmon yoritqichlari – bularning barchasida nazmiy ramzlar va majozlar yangitdan tug'iladi va yorqin ertakona jaranglaydi. Nozik uzun nurladan tashkil topgan girvat (girdob)li to'pbarggul yoki parrak (charx) quyosh tizimidagi jismlar ramzlarining bir ko'rinishidir.

Gurvatli to'pbarggul nur sochayotgan quyosh nurlarining an'anaviy ramzi hisoblanib, u Old Osiyo va O'rta Osiyodagi ko'p xalqlarining bezak san'ati, kulolchilik, haykaltaroshlik va to'qimachilikda keng tarqalgan. Romb quyosh tizimidagi jismlarni ifodalovchi boshqa ramzlar qatori qadim Sharq san'atida hosildorlik ramzi bo'lib keladi. Ta'kidlash lozimki, romb kashtachiligi bezakning alohida unsuri sifatida uchramaydi, lekin asosida romb gavdalangan panjarali

kompozistiyada keng qo'llaniladi. Besh qirrali yulduz islom madaniyatida qisqa umrni, to'lin oy esa islom ramzi sifatida gavdalantiriladi. Bu mavzu kashtalarda juda kam uchraydi, zuluk shaklida ma'lum bo'lgan "S" belgisi xalq ijodiyotida an'anaviy tarzda oqar suv ramzini anglatadi.

Kashtada gullarni ikki uslubda tasvirlashgan – bo'ylamasiga kesishgan gullar, o'zaro bog'liq bo'lib, ichki tuzilish hamda gulning yuqoridan ko'rishiga imkon berishgan. Bu paytda gulning qiyofasi tabiiyisiga juda yaqin, lekin shakli ancha soddalashtirilgan. Gul shakllarining ma'noviy jihatlariga e'tiborimizni qaratarkanmiz, gulsavsar islom san'atida an'anaviy bo'lib, ramziy ma'no anglatib kelgan. Uning yuqoriga tomon o'sgan yaproqlar bilan uyg'unlashib, qarama-qarshi tomonlar birligini anglatadi. Gulsavsarning shakli bargni qandaydir ko'rinish yoki narsaning qarama-qarshi xususiyatini anglatadi. Gulsavsar ham chinnigul singari o'zining ma'noviy ahamiyatini yo'qotib borgan. Biroq gulning shakliy xususiyatini, uning tishli gulgarglarini kashtalarda ishonchli tasvirlashadi.

Nilufargul – kasbkor va ruhiyatning halolligi, pok, begunohlikning an'anaviy ramzidir.

Lola - kashtada tasvirlanadigan birmuncha qiziqarli tasvir bo'lib, u jonbaxshligi va tartibsiz shakli bilan ajralib turadi. Bu gulning tartibsiz gulgarglaridan, hatto, shakliga ko'ra biroz hayoliylashtirilgan bo'lsa - da, osongina tanib olish mumkin.

Bodom - yoki buning o'xshash shakli qalampir mavzusi ham juda ommaviy bo'lib, bir qancha ko'rinishlarga ega bo'lgan. Bodomning turli shaklli naqshlarini o'rganib chiqish, bu naqsh qismlarining doimiy to'kilib, uzilib turishini ko'rsatadiki, u o'tmishda birmuncha tushunarli bo'lgan tustovuq shaklidagi naqshlarni xususiyatlaydi.

Bu meva sehr - jodu va asrab-avaylovchi unsur vazifasini bajarib, hayot va hosildorlik ramzi hisoblanadi.

Mazkur mavzuning kelib chiqishi qushlar (qirg'ovul, xo'roz yoki to'vus) qanoti ramzi singari, shaklning asta - sekin uslublashtirilishi va tasvirning ma'lum qismlari yo'qolishi bilan vujudga kelgan. Masalan, uning buyumlarda va do'ppilarda qo'llanilishi osmonga, yuqori ilohiy olamga intilish bilan aloqador.



tushuniladi.

Markaziy medalon va hoshiyada tasvirlangan qushlarning elkasida qo'chqor shoxining uslublashtirilgan o'ziga xos shakli o'sib chiqqan. Biroq buni kashtado'z o'ylab topmagan va u tasodifiy unsur emas. Bunday g'aroyib qushlar tasviri O'rta Osiyo qadim va o'rta asrlar san'atida tez-tez uchraydi. Qadimda muqaddas hayvonlar, jumladan, antiqa qushlar haykalchalari ostadon (suyakdon)larda o'rnatilgan va ularning elkasida kichik sham uchun shamdonlar bo'lgan va unda olov yoqilgan. Bu paytda jonivor saqlovchi muqaddas olov quvvati bilan yo'g'rilgan. Qushlar va hayvonlar elkasida o'rnatilgan shamdonlar loydan yasalgan o'yinchoqlarda va kashtachilik san'atida ham saqlanib qolgan.

Elkasida shamdon bo'lgan xo'rozlar tasviri balo - kazodan saqlovchi tumor sifatida qadim davr san'atidan kelib chiqqan. Umuman olganda, kashtalardagi qushlar qiyofalari o'zlarining shakliy ko'rinishlarini ko'p hollarda yo'qotganlar va baxt qushi hamda xotirjamlik ramziga aylanib qolishgan. Shunday qilib, kashta buyumlaridagi qadimgi ramzlar bugungi kunda o'z ma'nosini yo'qotgan, ammo ko'proq bezak sifatidagina qo'llaniladi. Turli ranglar qo'llanilishi do'ppi bezagini yanada ifodali va mazmunli bo'lishiga yordam beradi.

NAQSHLAR ALIFBOSI

Geometrik naqsh elementlari:

1. Nuqta hayotni boshlanishi, zarraga, tangrini yagonaligi, hayotni tugaganlik va boshqalar ramzi.
2. To'g'ri chiziq hayotni, to'g'ri yoki hayotni ravonligi.
3. To'liq chiziq hayotni notekisligi, oyni o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'ulikligi.
4. Olti qirrali yulduz. Hayotni boshlanishi va oxiri.
5. Musbat belgisi. Juftlik ramzi.
6. Tik turgan holatidagi teng tomonli uchburchak. Hayotning boshlanishi.
7. Teskari turgan holatida teng tomonli uchburchak. Hayotning oxiri.
8. Teng yonli uchburchak. Yaxlit bo'lingan bo'lak qayriliq olam, dunyoning to'rt tomoni, osmon saroyi.
9. Kvadrat. Quyosh farzandi, abadiylik yorug'lik mustaxkamlik olamning cheksizligi. Borliq er, suv, olov va havodan iboratligini bildiradi.
10. To'g'ri to'rtburchak. Ishonch.
11. Romb. Ayol ya'ni ona er, serfarzandlik.
12. Aylana. Olam, baxt, quyosh, abadiylik insonlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi.
13. Besh qirrali yulduz. Hayotni qisqaligini, besh kunlik dunyo, islomning besh ustuni.
14. Yarim aylana. Baxt.
15. Yangi oy. Islom dinining ifodasi. Musulmonlik.
16. Quyosh. Hayot, yorug'lik, ilqlik.
17. Quyosh nuri. Ziyoy.
18. Bulut, olov. G'oliblik, ulug'vorlik.

Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.

1. Bodom. Baxt – iqbol.
2. Barg. Bahorgi o'yg'onish.
3. Qalampir. Har xil yomonliklardan va yomon ko'zlardan.
4. Zirk guli (gulsafsar). Asrash ramzi.
5. Anor. Osoyishtalik va umr uzoqligi.
6. Oygul. Ezgulik to'qchilik.

- 7.Jingala. Baxt – iqbol, go’zallik.
- 8.Olma. To’kin – sochinlik, boylik ramzi.
- 9.Novda. Muxabbat.
- 10.Yaproq. Boylik va faravonlik.
- 11.Isiriq. Bahorgi o’yg’onish. Navro’z.
- 12.Atirgul. Go’zallik.

Qush va hayvonlar.

- 1.Sher. Mardlik, jasorat, kuchlilik, xokimlik.
- 2.Tulki. Makkorlik, ayyorlik.
- 3.Chumoli. Donolik, xokisorlik.
- 4.Bulbul. Sadoqat.
- 5.Xumo. Baxt qushi.
- 6.Boyqush. Baxtsizlik, vayronalik.
- 7.Baliq. Xushyorlik, xalol luqma.
- 8.Sichqon. O’y hayvonlarining ko’payishi ramzi.
- 9.Echki va qo’chqor. Jasurlik, mardlik, pokizalik.
- 10.Oq kabutar. Tinchlik.
- 11.Oxu. Go’zallik, ximoyasizlik, noziklik.
- 12.Ajdar. Yovuzlik, yomonlik.
- 13.Ilon. Yomonlik.

Buyumlarning ramziy ma’nolari.

- 1.Taqa. Yomon ko’zdan asrash ramzi.
- 2.Oyna. Kungil, soflik, aks.

Ranglarning ramziy ma’nolari.

- 1.Yashil rang. Ona tabiat, islom ramzi.
- 2.Moviy rang. Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko’zdan asrash ramzi.
- 3.Qizil rang. G’alaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik, qon.
- 4.Sariq rang. Muqaddaslik, yorug’lik, quyosh, kenglik.
- 5.Qora rang. Motam, cheksizlik, mavxumlik, qo’rquv, tushkunlik, noaniqlik.
- 6.Zangori rang. Oliy e’tiqod.
- 7.Oq rang. Poklik, ozodlik, yorug’lik, baxt, omad.

1.3. KASHTACHILIKDA BEZALGAN SOVG'ABOB

BUYUM TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan, shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, buqjoma, parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi - O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Jumhuriyatimizning barcha rayonlarida do'ppi tikiladi, uning iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma to'r, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor, har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular birbiridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi, quloh, araqchin, tusdo'ppi. Do'ppilarning xilma-xilligi - qubbasimon, to'rtburchak, dumaloq, gumbazsimon shakllari, ularga tikilgan kashtalarning bezaklari boyligi ba'zan to'rsimon, ba'zan yirik relefli, ba'zan gilamga o'xshash tus olishi, matoning oq-qoradan tortib kamalaksimon jilolanishigacha ranglarning anvoyi tovlanishi - o'zbek bosh kiyimining xilma - xilligini ko'rsatadi. Do'ppilarning ustki qismi va jiyagi guldor geometrik naqshlar bilan yaxlit tagdo'ziga gohida to'garaklar, gohida gul shoxlari shaklida tikiladi. XIX asr va XX asrdan boshlab do'ppilarda har xil mahalliy xususiyatlari shu qadar aniq beriladiki, uni kiygan kishining asli qaerdanligini aniqlash oson bo'lgan.

Kashtali do'ppilarning naqshinkor uslubi o'rta asr miniatyura va amaliy san'atdagi rivojini topgan boy naqshlarga yaqin. Turmush va tabiat haqidagi odamlarning tasavvurini aks ettirgan do'ppilar turli vaqtda rivojlangan obrazlarni o'zida singdirib sintezlashtirgan.

Buxoroda do'ppilari - ko'proq zar iplar bilan tikilgan. Kallapushi buxori boshqa viloyat do'ppilaridan nafaqat nomlanishida, shuningdek noyoblighi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Buxoro do'ppilari turli tuman bo'lib, zardo'zlik texnikasida bajarilgan. Kallapushi zardo'zi do'ppilari qadimda saroy amaldorlari libosining bir qismi bo'lgan, hozirgi kunda esa to'y va sunnat to'ylarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, Buxoroda do'ppi boshqa ma'noda ham qo'llanilgan, u qiz libosining bir qismi bo'lib, undan muchal marosimlarida keng foydalanilgan. Buxoro zardo'zlik do'ppilarining rivojlanishi bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Guldo'zi texnikasi o'rniga zamindo'zi texnikasi keng qo'llanila boshlandi. Yillar mobaynida Buxoro do'ppido'zlik san'ati rivojlanib, yangidan - yangi usullar ishlab chiqilib, naqsh kompozistiyalari murakkablashib bordi. Asosan do'ppilar siyohrang, yashil, qizil va ko'k kabi duxoba matolardan tikilgan.

O'zbekiston hududida asrlar davomida xalq badiiy hunarmandchiligining o'ziga xos yirik markazlari shakllangan. Har bir hudud o'zining badiiy bezak san'ati bilan boshqalardan ajralib turgan. Kashtachilik san'ati ham juda qiziqarli va qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanib, asrlar davomida ardoqlangan holda meros bo'lib kelmoqda. Hozirgi paytda Respublikamizning ko'pgina tumanlaridagi badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda turli xil kashta buyumlari ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, bu kasb bilan xususiy tarzda juda ko'plab malakali chevarlar shug'ullanadi. Har ikki jabhada ham mahalliy sharoitda shakllangan naqshlaru chizmalar keng foydalanilmoqda.

Rango - rang naqshlarga boy do'ppilar nafaqat o'zbek xalq an'anaviy milliy libosi, xalq san'atining ommaviy turlaridan biri, balki milliy koloritga yo'g'rilgan zamonaviy kiyim bosh sifatida ham yashab qoldi. Do'ppilar milliy libosning bir qismi sifatida respublikamiz va horijda o'tkazilib kelinayotgan ko'pgina badiiy ko'rgazmalar, turli tanlovlar, Tashabbus tanlovlarida namoyish etilib kelinmoqda.

O'zbek kashtachilari mohir qo'llari bilan yaratilgan do'ppilar O'zbekiston muzeylari va horijiy muzey zallarini bezab turibdi. Bu do'ppilarda uzoq asrga teng milliy urf - odatlarimiz, xalqimizning turmushi, uning boy madaniy va ma'naviy merosi mujassamlashgan. O'zbekistonning nufuzli muzeylaridan biri sanalgan O'zbekiston Amaliy san'ati muzeyi ham bunday tadbirlarga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Muzey ekspozitsiyasidan o'rin olgan do'ppilar keng ommaga alohida namoyish etilmoqda. Xususan, "O'zbek milliy do'ppilari" nomli amaliy san'at ko'rgazmasi 2007 yilda 18 may - Xalqaro muzeylar kuni arafasida muzeyning ko'rgazma zalida ochildi, unda Respublikamizning barcha viloyatlariga mansub do'ppilar namoyish etildi. Har do'ppining naqshinkor jilovi, bezak unsurlari, badiiy shakli, ifodaviyligi ko'pchilik tomoshabinlarda, ayniqsa xalq san'atiga qiziquvchi keng omma, jurnalistlar, diplomatik xizmati vakillari, chet ellik sayyohlarda qiziqish uyg'otdi. Shunday ekan, do'ppido'zlik san'atining noyob namunalarini avaylab - asrash, xalqqa tanishtirish muzeylar zimmasida bo'lgan eng katta va muhim vazifadir.

Kuloh - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i, uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.


Araqchin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi - Keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi.

Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz - erga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama bo'lib hisoblanadi. Joynamozdan Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatishadi, u ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi.

Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi, undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi va u turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli va bejirib qilib



bezatiladi, unda rang tanlashga ham juda katta e'tibor berish kerak.

Zardevor - uy jihozi bo'lib, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyumdir. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi va o'lchamga mo'ljallanib tikiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak - devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri, palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi, uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirk oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar, agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak

va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshladi, lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech - kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyimkechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi va qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim - kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi, bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana - forsha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar, shuning uchun palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlashi kerak bo'lgan, chunki so'zana kelinlarning sepi hisoblangan. So'zana uchun kompozition joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi, o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi.

So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, O'ratepa, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so'zana mashinada tikilib kelmoqda.

Choyshab – forsha, tojikcha, ro'yjo - tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

II-BOB.

KASHTACHILIK SAN'ATIDA QO'LLANILADIGAN ASBOB- USKUNALAR VA IPAK TURLARI

Kashtachilik san'atida qo'lda kashta tikish jarayonida, o'ziga xos asbob va uskunalar, matolar, ipak va boshqa turdagi rangli iplar mavjud. Kashta tikish jarayonida ignalar komplekti, angishvona, kichik qaychi, santimetr, bigizli kashta tikish uchun esa, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi. Kashtachilikda hozirgi kunda xilma-xil matolar keng ishlatilib kelinmoqda, bular adras, bo'z, karbos, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolardir.




Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko'rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos qilib tanlanishi kerak. Naqsh kompozitsiyasi chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, millimetrlangan qog'oz, nusxa ko'chiradigan qog'oz va shaffof qog'ozlar kerak bo'ladi. Agar kashta tikuvchi o'zi naqsh chizib bilsa, u holda u to'g'ridan to'g'ri mato ustiga tanlangan naqsh kompozitsiya va tasvirni chizadi va ranglarni to'g'ri va did bilan tanlab, kashta tikishni boshlaydi. Bigiz yordamida kashta tikishda, chambaraklar (korcho'p) ishlatiladi, chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun xizmat qiladi. 20-40 sm li ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir - birini ichiga tushib turadi.

Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo'lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak. U juda kichik bo'lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo'lsa, atrofiga yupqa gazlama o'rab qo'yish mumkin. Bigiz yordamida kashta tikishda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli- ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Kashta tikishda ilmoqli bigiz ayrim materiallarga, masalan charm, kartonga ninani qiynalmay o'tkazish uchun, oldin ilmoqsiz bigiz bilan teshib olinadi, so'ngra kashta tikiladi.

Chambarak tortilayotgan yupqa gazlama yirtilmasligi, shuningdek, kashta tikiladigan gazlama ish paytida iflos bo'lmasligi uchun, uning ustiga o'rtasi chamberakning diametridan kichikroq doira qilib qo'yilgan boshqa gazlama qo'yiladi. Chamberaklar stolga mahkamlab qo'yish uchun vintli bo'lishi ham mumkin. Qo'lda kashta tikishda umuman chamberak ishlatilmaydi. Kashta tikish uchun cho'ziqroq ko'zli kalta (1 va 2 tartibli) ignalar tanlanadi.

Ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun juda qulaydir. Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo'lgan halqa ichiga jun ipi uchun kiritiladi, ipakning ikkala uchini igna ko'zidan o'tkazib, jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, shoyi, batis, shifon) gazlamaga kashta tikishda, ko'zi kichik va juda mayin ignadan foydalaniladi, chunki agar igna yo'g'on bo'lsa, igna sanchilgan joylari teshilib qoladi. Kashtani chamberaksiz tikishda, bir necha qavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikishda ignani gazlamadan o'tkazish uchun angishvona kerak bo'ladi.

Ang - (forsche - angusht), ya'ni barmoq, vona - (bona - saqlovchi), degan ma'noni bildiradi. Barmoqni igna suqilib ketishidan asrash maqsadida ishlatiladigan metall g'ilof. Bu texnika xavfsizligiga rioya qilishda ham zarurdir. Angishvonaning usti va yoni ignani qadashda toyib ketmasligi uchun chuqurchalar qilib tayyorlanadi. Angishvona o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uni barmoqning yo'g'onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo'lmasligi kerak.



Kashta tikish jarayonida iplarni qirqib olish va matolarni qirqish uchun turli xil o'tkir uchi 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig'larining uchi to'la yopiladigan bo'lishi kerak. Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum o'lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Naqsh kompozistiyasini gazlamaga ko'chirishga tayyorlashda shaffof qog'oz ishlatiladi. Naqsh avval shaffof qog'ozga ko'chiriladi, keyin qog'ozdan gazlamaga ko'chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko'chirish uchun (kopiroyka) qog'ozi ishlatiladi.

Ipakni tabiiy ranglarga bo'yash uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar:



Mis qozonlar.

Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz ipakni bo'yashda xumlardan foydalanishgan. Hozirgi kunlarda bo'yashni mis qozonlarda yoki sirlangan idishlarda amalga oshirsa bo'ladi. Mis qozonlar yoki sirlangan idishlardan foydalanganda, ranglash turlariga qarab hajmi yoki soni turlicha bo'ladi. To'qimachilikda (abrli bo'yoqlar) 50-100 litr hajmli idishlardan foydalanish kerak, chunki bo'yaladigan ipak iplar hajmi katta bo'lishi mumkin, shu sababli ularni bitta idishga solib bo'yaladi. Agar bo'lib solinsa, rang bir-biridan keskin farq qilib, yoki to'qroq va yoki ochroq tusli rang paydo bo'lishi mumkin. Kashtachilikda bo'yaladigan ipak kalava holatida bo'ladi.

Ranglash jarayonida idishga rangning miqdoriga va solinadigan suvning miqdoriga katta ahamiyat beriladi. Ranglash jarayonida ishni ohorlash, achchiqtoshda pishirish bitta idishda, sariq, qizil va ko'k rangga bo'yashda bitta idish va boshqa ranglarda bo'yashda yana bir idishda bo'yalgani ma'qul.

Hovoncha.



Bu idish yordamida bo'yoqlar va achchiqtoshni maydalash (tuyish) uchun foydalaniladi.



Tarozi (grammli).

Ipak bo'yashda tarozi eng zarur bo'lgan asboblardan biri bo'lib hisoblanadi. Bo'yash jarayonida achchiqtoshni yoki bo'yoqni kerakli miqdorini to'g'ri o'lchab olish uchun va mo'ljallangan rangni me'yorida olish uchun mo'ljallangan.



Sopolli xumlar va plastmassa idishlar

Sopol xumlar yoki plastmassa idishlar ranglashdan keyin bo'yoqli suvlarni saqlashga, yomg'ir suvlarini to'plashga zarur bo'ladi. Bunda xumlarni va plastmassa idishlarni soyali va qorong'i joylarda, yaxshisi erto'lada saqlansa, suvning xususiyatlari buzilishini kamaytiradi.

Suv haroratini o'lchagich

Suv haroratini o'lchagich asbobi bo'yoqchilikda hizmati beqiyos. Bo'yash jarayonida suv haroratini o'lchash uchun mo'ljallangan asbob qo'ldan tushmaydi. Suvni haroratini to'g'ri o'lchash mo'ljaldagi rangni olishga yordam beradi.

Tayoqchalar (40-50 sm o'zunlikda)

Tayoqchalar yog'ochdan yasalgan bo'lib, ranglash jarayonida kovlash, ranglanganidan keyin ishni qoqishga yordam beradi. Har bir rang uchun alohida tayoqchalar ishlatiladi. Ish jarayonida zanglamas tayoqchalardan ham foydalanilsa bo'ladi, chunki ular o'ziga rangni shimimaydi.

Ipaklarni quritish uchun maxsus xona

Ipak, ip yoki jun achchiqtoshda pishirilganda yoki ranglangandan so'ng salqin, soyali, qorong'i xona zarur bo'ladi. Ish qorong'i xonada ranglashgacha va chayish jarayonigacha 7-10 kun saqlanadi. Sababi, bunda ipak rangni yaxshi oladi va rangni o'zida yaxshi saqlaydi.

Rezina qo'lqoplar

Indigo rangini bo'yashda rezina qo'lqoplardan foydalanish kerak, chunki, gidrosulfid qo'lga aksta'sir berib, terini kuydirishi mumkin.

Cho'michlar

Ipak bo'yashda o'lchovli cho'michlardan foydalanish kerak. Plastmassa cho'michlar ham bo'laveradi, asosiysi, issiqlikka dosh beradigan bo'lishi kerak. Bo'yash jarayonida suvning tozaligi katta ahamiyatga ega, chunki suvning tozalik darajasi ham bo'yoqga katta ta'sir etadi. Ba'zi ipak bo'yash bilash shug'ullanadigan ustalar, yomg'ir suvini ishlatishni ma'qul ko'rishadi, lekin hozirgi kunlarda yomg'ir suvi ham oddiy jumrak suvidan toza bo'lishiga kafolat yo'q.

Shunga qaramay, tabiiy va mahsus suv sifatida yorqin va tiniq rang olish uchun yomg'ir suvini plastik idishlarda to'plab ishlatga ma'qul, chunki yomg'ir suvi bunda o'z xususiyatlarini saqlab qoladi. Bo'yoqchilikda oddiy jumrak suvi yoki yomg'ir suvlarni saqlab ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Ranglashdan keyin ishlatiladigan suv

Bo'yalgan ipak, jun, paxta ip va gazlamalarni chayish yoki yuvishda o'sha bo'yalgan suv tarkib saqlangan suvda chayish kerak. Aks xolda ranglar o'zgarishi mumkin. Idish yuvish uchun ishlatiladigan suyuqlik bo'yalgan narsalarni chayish uchun eng qulay vosita bo'lishi mumkin, chunki uning tarkibida neytrallik xususiyat bor.

Ipakni oqlash va ipak, ip, jun mahsulotlarni ranglashga tayyorlash

Ranglashdan oldin ipak, ip, jun yoki to'qilgan matoni achchiqtoshda, qozon yoki sirlangan va zanglamas idishlarda qaynatib olish kerak. 1 kg ipakni qaynatish uchun 250-300 gramm achchiqtosh zarur bo'ladi. Achchiqtosh O'zbekistonning hamma bozorlarida keng uchraydi. U yurtimizga Eron va Rossiyadan keltiriladi, asosan achchiqtoshni kassalikni davolashda va ichimlik suvni qayta ishlash korxonalarida suvni tozalash maqsadida ishlatiladi. Achchiq tosh xovonchada maydalanib, qum xolatiga keltiriladi. Alohida kichkina idishda qaynatib eritib olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eritilgan moddani katta idishga solib 120 gradusda qaynatiladi va shu holatda 30-45 minut qaynatiladi. Yuqori haroratda qaynatilgach, sovitilib polietilen xaltachalarga bakteriyalardan saqlash uchun mahkam berkitib solib qo'yiladi. Soya, salqin, qorong'i xonalarda polietilen xaltachalarda 6-8 kun muddat saqlanadi. Yaxshi ranglash uchun eng ko'pi bilan 8 kun saqlash maqsadga muvofiqdir.

Kimyoviy ranglarda achchiq tosh rangni mustaxkamlovchi vazifani bajarsa, tabiiy ranglarda achchiqtosh rangni so'rib oluvchi vazifasini bajaradi. Agar siz tabiiy rangda ishlay boshlasangiz rangga tayorlash jarayonida ipakni achchiqtoshga solingandan keyin, qo'lda siqib olsangiz qo'lingizni quruqlashganiga guvoh bo'lasiz.

Ipakni oqlash (pishirish)

Bu jarayonni amalga oshirish uchun, 50-yillargacha oxorlash uchun tabiiy ishqordan foydalanishgan, Farg'ona vodiysida qirq bo'g'im o'simligi kulidan keng foydalanilgan. Ishqordan kulolchilikda keng foydalaniladi. Buxoroda, Boysunda va Rishton shaharlarda ishqorni topish osonroq. Tabiiy ishqorlangan ipak rangni yaxshi oladi va ipakning sifati yaxshi saqlanadi. Hozirgi mahalda xunarmandlarimiz temir sodasidan keng foydalanishadi.

Ipakni oqlash, ya'ni yuvish kerak, bu uchun qozon yoki sirlangan va zanglamas idishlar zarur bo'ladi. Idish 50 litrli bo'lsa ipakdan 5 kg, temir sodasidan 200 gramm, 70 gramm kir sovun zarur bo'ladi. Idishga suvni quyib tagiga olov yoqamiz, suv isigach, sovunni maydalab sodani qo'shib solamiz. Sovun erib ketishi zarur, sovun erigach 50-60 gradusda ipakni tayoqchalar yordamida aylantirib turamiz. 30 minut qaynagandan keyin idishdan ipaklarni olamiz va boshqa qozonda isigan, qaynashga yaqin bo'lgan suvda chayiladi. So'ngra ipak tayoqchalarda ikki kishi yordamida yaxshilab qoqib silkitiladi. Ipakning holati qurigandan keyin mayin bo'lsa yaxshi yuvilgan, ipaklar bir-biriga yopishgan dag'al tursa qaytadan soda va sovunli suvda yuvamiz.



2.1.SOVG'ABOB BUYUMLARNI KASHTACHILIKDA BEZASHDA KOMPOZITSIYA QONUNI

Musavvir, shoir, kashtado'z, yoki boshqa san'at arbobi, yangi asar yaratar ekan, albatta tabiatdan ilhom oladi va undagi mavjud go'zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi. Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining qaysi bir turida ijod bo'lmasin, uning zaminida naqsh kompozitsiyasi - kompozitsiya asoslari yotadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasini ma'lum qonun - qoidalarga amal qilingan holda joylashtirish, ya'ni kompozitsiya tuzish uziga xos bilim va malakaga ega bo'lishni talab etadi. Birgina anor, bodom, qalampir, gul nusxalaridan kashtado'zlik, ganchkorlik, kulolchilik, zardo'zlikda turli - tuman o'ziga xos naqsh kompozitsiyalarini yaratish mumkin.

“O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan ko'plab naqshlar, tabiat hamda, voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan, o'ziga xos qonun-qoidalarga ega, bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin, novdada burglar bo'lib, bir xil yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o'z aksini topgandir. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iborat”.

Kompozitsiya - lotincha so'zdan olingan bo'lib, joylashtirish, qurish, tuzish degan ma'noni anglatadi, bunda tanlangan naqsh namunasiga ko'ra uning kompozitsiyasi qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani qosil qiladi. Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda avval ko'plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o'rnini almashtirish, qo'shimcha elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muqim ahamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan rang

tuslarining ma'lum bir koloritga bo'ysundirishdan iborat. Kompozitsiyada naqsh yaratishning shunday qoidasini simmetriya, assimetriya, ritm, markazni topish, stilizatsiya, muvozanat, elementlarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Kashta nikuvchi naqsh chizishda quyidagilarga amal qiladi:

1. Naqsh namunalaridagi chiziqlar harakatning stilistik birligiga erishish.
2. Davriy takrorlanish.
3. Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini aniqlash.

Bular mustaqil naqsh chizish jarayonida uning qismlari o'rtasidagi bog'liqlik, naqshdagi elementlarning o'q chiziqiga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslarining bir-biriga muvofiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar, novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan boqlanishi hamda shu kabilardan iborat.

Kompozitsiya tuzishning qoida-qonuniyatlari:

1. Chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o'lcham va taqsimlarini mo'ljalga olish.
2. Kompozitsiyaning yakka va qo'sh banddan iborat bo'lishligini nazarda tutgan holda, tanob elementi shakllarini joylashtirish.
3. Kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh kompozitsiyasini kiritib mukamallashtirish.
4. Naqsh bandini bofta, shkufta kompozitsiyasi bilan bog'lab boyitish.
5. Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib, naqshni nomlash.
6. Kompozitsiyaning ma'no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash va boshqalar.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida simmetriya, assimetriya, ritm, muvozanat, elementlarning o'zaro birikuvi, turlanishi kabi qoidalarga rioya etish bilan birga, tabiat go'zalligini chuqurroq his etish, badiiy va ijodiy qobiliyatning rivojlanishi ham shakllanib boradi.

Simmetriya – tenglik degan ma'noni anglatadi. Bunda naqsh kompozitsiyasi o'q chiziqining markazi atrofida bir xil o'lchamda joylashadi, hamda bir butun yaxlit ko'rinishda tikiladi.

Naqsh kompozitsiyasining simmetrik tuzilishi – “rapport” naqsh bo’laklari va bo’linish joylari esa “taqsim” deyiladi. Yo’l ichiga joylashgan “hoshiya naqsh” lari simmetrik rapport tarzida davriy (ya’ni ritmik) takrorlanib keladi.

“Rapport” naqsh kompozitsiyasining ma’lum tartib va oraliqda uzluksiz takrorlanib kelishini bildiradi.

Assimetriya - simmetriyaning teskarisi bo’lib, bunda kompozitsiyadagi muvozanat qonuniyatiga amal qilinmaydi. Naqsh kompozitsiyasidagi harakat bir-biriga mutanosib ravishda joylashmaydi. Bunda naqsh kompozitsiyasi o’q chiziqi va markaz kabi shartli belgilarga rioya qilinmagan holda joylashtiriladi. Assimetrik naqshlarni ko’proq ayollar libosida, pannolarda ishlatiladi. Mustaqil ijod orqali yangi naqsh namunalari yaratilar ekan, ranglar jozibasi va yorqinligi ham aloqida his etib boriladi.

Kashtado’zlik, ganchkorlik, yoqoch o’ymakorligi va boshqa xalq amaliy bezak san’ati turlarida dastlab buyum yoki ma’lum bir yuzalarga ishlanadigan naqsh kompozitsiyasini dastlabki xomaki namunasi ishlanadi va u “naqsh chizgilari” deb ataladi. Naqshning shakl yasovchi yo’l kompozitsiyasi va rang turlari kompozitsiyaning nomlanishida katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ijod orqali biz yangi naqsh namunalarini yaratar ekanmiz, ranglar jozibasi va yorqinligini ham aloqida his eta boshlaymiz, chunki, kompozitsiyaning mazmuni va ma’nolariga mos ranglarning o’zaro birikuvi, naqshning nafisligini oshiradi.

Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasiga ham bog’liq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o’lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli bajariladi. Naqsh eskizini tuzishda, elementlar ko’rinishini yo’l, aylana va hokazo shakl o’lchamining ichiga joylashtiriladi. Masalan, so’zana, yostiqlik jildi, liboslar kompozitsiyasini misol qilsak bo’ladi, bu oddiy naqsh kompozitsiyasini bosqichma - bosqich, yo’l, to’rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyal tuzib chiqiladi.

Naqshlarni – shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, mehrob lola ko’rinishi ifodalangan yo’l ichidagi naqsh shakli odatda hoshiya naqshlar, deb atalganligi sababli mehrob hoshiya, deb nomlanadi.

To'rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o'xshash bo'lganligi sababli mehrob patnis shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil etadi va shunday nomlanadi. Aylana - gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa aylana mehrob naqshi, deb ataladi. Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka, qo'sh va bir necha bandli ramka ko'rinishlarida chizish mumkin, bunday turdagi ko'rinishlar naqshlar rejasi, deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh kompozitsiyasini ana shu kabi turli qoliplar ichiga joylashtirib qosil qilinadi.



Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o'rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko'chiradilar, shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma'muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo'llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi. Naqsh kompozitsiyasini yangi nusxalarini yaratish, ularni yoddan chizish borasida tabiat qo'yniga sayoqatga chiqish va unda nazariy hamda amaliy bilim, malakalar asosida stillashtirish usullari bilan bevosita shuquullanish kerak. Yana ramziylik va qayta ishlashga doir maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora foto-suratlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzishda dastlab yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib naqsh shaklini xayolan tanlab olamiz.

Albatta bu naqsh kompozitsiyasi biz qachonlardir kuzatib yoki o'zlashtirib olgan naqsh bo'laklaridan iborat, bunda biz fikr yuritishimiz orqali ish tajribalarimiz, tasavvur, shuningdek xotira zaqiralarimizda qanchalik ko'p naqsh kompozitsiyasi mavjud bo'lsa, shuncha ko'p ajoyib naqshlar tuzishimiz mumkin bo'ladi. Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida, zamin bo'yicha tarqaluvchi

naqshlar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart, buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir elementga aloqida ishlov berilgan holda, uning nusxasi kerakli matoga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqshda kompozitsiyalar asosan yakka va qo'sh bandli novdalar ishtirokida tuziladi. Yana bir boshqa naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun mehrob ko'rinishigagi naqsh kompozitsiyasini tanlab olamiz. Mavjud mehrob elementini yo'l, to'rtburchak va aylana matolari ichiga joylashtiramiz. Ushbu mehrob shakli kompozitsiyada yasovchi vazifasini o'taydi. Navbatdagi chiziluvchi barcha naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi elementlar deb atash mumkin, chunki ular bodom, anor, novda, barg, gul, kurtak va hokazo naqsh yuzalarini to'ldirib turadilar. Endi mehrob ko'rinishigagi shakllarga novda harakati kiritiladi. So'ngra, shakl yuzalariga mos ravishda lola guli hamda kurtak naqsh kompozitsiyasini chizamiz, bunda o'ziga xos ko'rinishdagi yangi naqsh nusxalari qosil bo'ladi.

Kashtachilikda buyum tikishdan oldin, uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga - naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifolali bo'lishiga, aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Yo'l ichida bajarilgan ba'zi naqsh bezaklari, shunday xususiyatga egaki, har bir yo'lda ma'lum umumlashtirilgan uslubda, bitta motiv bir yoki bir necha marta takrorlanib, ritmik qator hosil qiladi. Mutlaqo bir xil elementlarning yoki elementlar gruppasining takrorlanishi rapport deyiladi. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana) dan, shuningdek to'lqinsimon, siniq chiziqlar, o'simlik motivlari (barglar, gullar, shohlar, daraxtlar)dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar va h.) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba'zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiat motivlari qo'shilgan bo'ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo'lishii kerak.



O'zbek kashtalarining kompozitsiyasi turli hududlarda turlicha bo'lsada, ularning bir-biriga yaqinligini gullarini xarakteri va rang berishda umumiy prinsiplarni aniqlashga imkoniyat tug'iladi. Shofirkon kashtachiligida kompozitsiya muhim va asosiy qismni tashkil qiladi. Umuman, kompozitsiyani

bir necha guruhga bo'lib o'rgansa bo'ladi.

1. Markaziy gul sathi kompozitsiyasi;
2. Chekka hoshiya kompozitsiyasi;
3. O'simliksimon kompozitsiya;
4. Markaziy gul va unga yondosh to'rt burchakni bitiruvchi kompozitsiya;
5. Markaziy gul davrasi kvadratsimon, rombsimon va ko'p burchakli to'rsimon kompozitsiyadir.

Yuqorida ko'rsatilgan kompozitsiyalar tikiladigan kashtaning qanday maqsadga foydalanishga, ishlatilishiga bog'liq. Masalan, Joynamoz uchun mo'ljallangan naqsh kompozitsiya. Bu uchun asosan chekka hoshiya kompozitsiyasi olinadi va chekka kompozitsiya shunday joylashtiriladiki unda oldingi tomonida chizma mehrobga moslashtirib joylashtiriladi va hoshiyaning oldingi qismiga umuman hech narsa chizilmaydi, ya'ni mehrobga kirish joyi bo'sh qoldiriladi. Joynamoz uchun mo'ljallangan naqsh kompozitsiyasi P shaklda bo'ladi. Chekka hoshiyalar ham turli o'lchamlarga olinadi. Shunday so'zanalar borki, unda chekka hoshiyalar 10-15 sm.ni tashkil etadi. Uni Buxoro kashtachiligida obai xurd - kichik hoshiya deb yuritiladi. Shunday hoshiyalar borki, ular 25-30 sm.ni tashkil etadi va u Buxoroda "Obai kalon" - katta hoshiya deb yuritiladi. Bu hoshiyalar markaziy gul sathiga mutanosibligi turlicha bo'ladi, bunday enli hoshiyalar XIX asr kashtalarida juda ko'p uchraydi. Shofirkon kashtachiligida birgina bezakning o'zi ham markaziy gul sathi va hoshiya o'lchovlarining bir-biriga mutanosibligi andozaning bir xil bo'lmasligini ko'rsatadi.

Qadimgi an'analarga suyanan holda kashta tikayotgan kashtado'z, hech qachon takrorlanish, qaytarilishiga yo'l qo'ymaydi va u yangi qirralarni, bezaklarning turli-tuman bo'lishini, har bir ishida yangi badiiy imkoniyatlar, o'ziga xos chiziqlar topishga harakat qiladi. Xalq badiiy san'atining ushbu turining kuchi ulug'ligi ham shundadir.

Badiiy bezak san'atining kashtachilik turida kompozistiya asosiy va maqsadli o'rinni egallaydi, har bir kompozistiyaning ma'lum falsafiy, ma'naviy g'oyasi mavjud. Shofirkon kashtachiligida ko'p tarqalgan kompozistiya: (Nahli-asb) - ot taqasi; (kord)- pichoq; (islmiy) naqshli nusxalardir. Shu kompozistiyalardan biri islmiy naqshli kompozistiyalardir.

Islmiy naqsh - to'liqinsimon, aniqrog'i, o'simliksimon kompozistiya etakchi uslub hisoblanadi. Islmiy naqsh jilvador bo'lsa, markaziy maydonni o'rab oluvchi hoshiya gullariga mos bo'ladi. Bu naqsh goh gorizontal, goh vertikal uslubda tikilgan bo'lsada, ko'zga yaqqol tashlanadi. Bir tekisda aylantirib tikiluvchi islmiy nusxa asosan shox, butoqlar, barglarning takrorlanib kelishidan hosil qilinadi va islmiy naqshlarining qayrilma joylarida uning o'sib kelishiga mos ravishda gullar, bodomchalar, qalampir va boshqa xildagi mayda bezaklar tikilib, to'ldiriladi.

Gul bandlari islmiy naqshlarining bevosita o'zidan, barglardan chiqarilib goh yuqoridagi, goh pastdagi, goh yon tomonga tikiladi va shu mayda bezaklar yanada boyitadi. Shofirkon kashta gul bezaklarida mahalliy sharoitda o'sadigan gullardan gulsapsar, chinnigul, lola, gultojixo'roz, gulxayri, rayhon, olmaguli; mevalardan anor, gilos, bodom va qalampir tasvirlarini uchratamiz. Shunday chizmakashlar ham mahorat bilan ishlaganlarki, ular chinakam xalq san'atkori bo'lganlar, ular tabiat hodisalarini umumlashtira olish qobiliyatini sodda va aniq, yorqin dekorativ obrazlar yaratishda murakkab vazifani bajarganlar. Misol tariqasida biz gulsapsarning tasvirini ko'rmoqchi bo'lsak, unda ikki shakl to'rtta bargdan iborat bo'lib, ulardan ikkitasi yuqoriga chiqqanda birlashadi va ikkitasi pastga egilib tushadi. Ular asosan to'q zangori, binafsha ranglarda tikiladi. Ularning cheti qizil ipak bilan hoshiyalanadi. Bunday tasvirlash birinchidan gulning aynan o'zini aks ettirishga intilishini bildiradi, ikkinchidan dekorativ san'atda jonli tabiatni aks ettirishda ham shartlilikning zarurligidandir. Kashtada gullarning ko'pligi, ularning

turli-tumanda bo'lishi ayniqsa ko'p uchraydi. Bularning tikilish uslubi ham boshqacha bo'ladi. Kashtachini gulni tasvirlashda ipak bilan gulning kattaligini berish emas, eng muhimi dekorativ san'ati asariga rang berish, ularga jilo berish ko'proq qiziqtiradi. Naqshlarning ko'pgina kompozistiyalari mavjud bo'lib, ular doimo yangilanib turar va meros bo'lib o'tadi. Naqshlar shakli saqlanishida o'tmishda ayollarning faqat uyda o'tirishi sabab bo'ldi. Kashta buyumlari naqshining boyligi o'zbek xalqining ma'naviy xayoti, an'analar va shoirona dunyoqarashi bilan bog'liq. Kashtalar bezagida serhasham gulli to'pbarggullar, guldastalar, gul va barglardan tashkil topgan o'simliksimon naqshlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa tabiiyki, o'lkaning jazirama yoz xukm suruvchi tabiati o'simliklarga e'tiqodning yuksakligini, ularni turli shakllarda nazmiy talqin etilishiga imkoniyat yaratadi.

Kashtalarda o'simliksimon naqshlarning ustunlik qilishi, ularning ijodkorlari o'troq - dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilardir, o'simlik - gulli mavzularga sodiq bo'lgan islomning badiiy an'analari ta'sirini ko'rsatadi. Yulduz turkumlari ramzlari etakchi bo'lgan Toshkent kashta palak va do'ppilarini hisobga olmaganda, barcha hududlar kashtachiligida o'simliksimon mavzular birlamchi ahamiyat kasb etishini anglash qiyinmas.

Mahalliy tabiiy shart - sharoit xalq kashtachiligining tuganmas manbaidir. Shunday ekan, o'simliksimon naqshlarda butalar, guldastalar, shoxlar, alohida gulli to'pbarggullar katta o'rin egallashi tasodifiy emas. Bu mavzular orasida uchraydigan yirik butalar ham, mayda shoxchalar ham uchbarg, yarim aylana yoki shunchaki yo'g'onlashgan asosda izohlanishini belgilab o'tish qiziqarli. Ba'zi hollarda erdan o'sib chiqayotgan va ildizlari unga qarab ketayotgan tirik o'simlik shartli tasvirlanadi. Boshqa bir vaziyatda gullar, barglar yoki to'pbarggullardan o'sib chiqayotgan lola yoki nilufar singari gullar tasviri birmuncha ko'proq uchraydi.

Kashtalardagi gulli mavzular orasida O'zbekistonda o'sayotgan gulsavsar, chinnigul, gultojixo'roz, stinniya (bezakli gul), gulhayri, olma guli singarilar mavjud ekanligi ham tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanadi. Mevalar orasida esa anor, olcha yoki gilos, bodom, garmdori va ko'knor tasvirlari birmuncha ommaviy tus olgan. Kashtada gullarni ikki uslubda tasvirlashgan - bo'ylamasiga kesishgan gullar, ular o'zaro bog'liq bo'lib, ichki tuzilish hamda gulning yuqoridan ko'rishiga imkon

bergan. Bu paytda gulning qiyofasi tabiiysiga juda yaqin, lekin shakli ancha soddalashtirilgan.

2.2. IPAKNI TABIIU RANGLARGA BO'YASH TEXNOLOGIYASI

XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida O'zbek kahtalarida rang berish tubdan o'zgardi. Ilgari Ipaklar analin bilan bo'yalgandan so'ng, ularning nafisligi, jozibasi pasaydi, dag'al va yoqimsiz bo'lib qoldi. Kashtachilikda ipak iplar tabiiy bo'yoqlarda buyab tikilgandan so'ng, avvalo, badiiy bezak san'atining umr boqiyliigi ancha osdi, avloddan-avlodga meros bo'lib qolish, bir necha yuz yillar holatini saqlab qolish xususiyati kuchaydi. Tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipak iplari quyosh nuri, tabiat injiqliklari, tashqi muhit ta'sirlariga ancha pishiq va mustahkamdir. Tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan, ipak iplaridan tayyorlangan goh katta so'zanalar, goh kichik hajmdagi kashtachilik namunalari insonda ijobiy ta'sir uyg'otadi.



Ipak iplarni tabiiy yo'llar bilan bo'yash usuli:

10-15 litr suv olinadigan qozonga 1 kg ishqor (saksovil, sho'ra, g'o'zapoya kuli) doka xaltachaga solinib, qozonga tashlanadi va suv 5-10 minut qaynatiladi. Ipak iplar kalavasi maxsus ishqorlangan 2 ta yog'och tayoqlarga joylashtirilib, qozonga solinadi va goh-gohida ular aylantirilib turiladi va kalavalar 30-40 minut qaynatiladi. Qaynatilgan ipak ip kalavalari, avval iliq suvda 3-4 marta, so'ngra sovuq suvda 3-4

marta ikki qo'llab, suvda aylantirilib yuviladi va chayiladi. Oxirida yaxshilab suvdan silkitib quritiladi. Yumshatilgan ipak iplarini tabiiy bo'yoqlar yordamida bo'yaladi.

Tabiiy bo'yoq tayyorlashda eng muhim o'simliklarning qaysi turidan va ularning qanday qismidan bo'yoq olish mumkinligini bilish zarur, bunda quritilgan usmadan, piyozning yupqa po'stlog'idan, quritilgan anor po'stlogidan, daraxtlarning po'stlog'idan va boshqa o'simliklardan foydalaniladi. Bu jarayonning oz' siruasnlari va bosqichlari mavjud.

Ba'zi o'simliklardan foydalanib, ipakni bo'yash usullari.

1 kg ipakni sariq rangga bo'yash usuli:

Anor po'stlog'i nim qorong'u joyga quritiladi.

Quritilgan anor postlog'i yaxshilab yanchiladi.

500 gr yachilgan anor po'stlog'i, 5 gr ishqor. Bu aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi, so'ng 80 gr achchiq tosh solinadi. Jamlangan ipak iplar solinib, 10-15 minut aralashmada saqlanadi va iplar sariq rangga bo'yaladi.

1 kg ipakni yashil rangga bo'yash usuli:

Maxsus quritilgan o'sma o'simligi barglaridan 500 gr, 50-60 gr achchiq tosh, 5 gr soda, 200-300gr II yoki III temir oksidi. Aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi. Qaynatilgan suv aralashmasiga iplar solinadi va 10-15 minut ikki qo'llab aylantirilib turiladi, iplar yashil rangga bo'yaladi. Kashta tikish uchun gazlama bilan, ip buyumlarining nimaga mo'ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan matoga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado'zlikda katta ahamiyatga ega. Bu kashtado'zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o'zaro muvofiqligi ham, kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

O'tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli, ko'pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so'zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari baxmal, shoyi, satin matolariga tikilmoqda. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi. Kashtado'z kashta tikmoqchi bo'lgan libos shakliga, matosi rangiga qarab, kashta nusxasini tanlashi kerak. Mulina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo'ladi.



O'n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib - yigirilgan turli razmerdagi oq bo'yalgan bo'lib, kalava qilingan (40g li), g'altak va qog'oz patronlarga o'ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo'ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig'ir poyasidan, sun'iy tolalardan tayyorlangan

iplar, mayin sim, zar ip, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalar bilan tikiladi.

Kashtachilikda rang asosiy va muhim o'rinni agallaydi.

Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni, asosidan kelib chiqib, rang koloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon sutdek oppoq bo'lmaydi, uning biroz kulrang, sarg'ish tusi uzviy koloritni hosil qilishga bir qadar mosdir. Agar fon bo'lsa, u holda shu rangga mos kashta ipaklari tanlab olinadi. Ba'zan fon ipaklar bilan birga ornamentning rang-barang ochilib turishiga xizmat qiladi. Kashtalarda qo'llaniladigan yashil ranglar ham turli-tuman bo'ladi, ularda sarg'ish yashil va ko'kish feruza (dengiz suvi rangi) turlari bilan birga to'q havo rang, yashil ranglarninig har xili qo'llanishi mumkin. Sariq va havo ranglarninig aralashuvidan hosil qilinadigan yashil rang ham har xil ko'rinishga egadir, unda goh zarxal, goh havo ranglar tovlanib, ajoyib joziba hosil qiladi.

Kashtachilikda buyum tikkanda uning ornamenti sidirg'a tikiladi, bezaklari esa qizg'ish to'q qizil ranglarninig tartibli ravishda qaytarilish asosida tikiladi. To'q qizil va malla ranglarning bir xilda almashinib kelinishi Buxoro, Shofirkon kashtasiga mosdir. Rangli bezaklar ishlashda faqat qizil ranglargina qo'llanilmay, balki gullar, doira bezaklarining ayrim joylari sariq, zangori, novvoti, och binafsha va pushti rang iplarda tikiladi. Odatga ko'ra gullar va doira bezaklarining chetiga konturlar tikilmaydi, bu esa bezaklarninig tabiiy gulga o'xshashiga olib keladi. Gulninig barglari qora yoki boshqa ranglar chiziqlar bilan chegaralanadi. Kashtalardagi rang-

baranglik, qizil va yashil, sariq va binafsha, to'q sariq va havo rang, yashil va to'q sariq, qora va oq ranglar kontrasti asosida beriladi.

Buxoro, Shofirkon kashtalarining xarakterli tomoni shundaki, ularda ko'proq zangori, kul rang va pushti ranglar ishlatiladi. Aynan shu ranglarni Varaxsha devori naqshlarida ham (mil.av.VII asr yodgorligi) uchratish mumkin. Badiiy buyumlarini kashtachilikda bezash uchun, tabiiy iplardan foydalansa, buyumlar o'zgacha bir go'zallikga ega bo'ladi. Bunday ipak tolalar tabiiy yo'l orqali ranglanadi, avvalambor, mahalliy sharoitda pilla tolasini yumshatiladi va bajariladi.

XIX asrda kashtalarda ipakning to'qqiz xilidan tortib, o'n to'rt xiligacha, ba'zan undan ham ortiq ishlatilganini ko'ramiz. Bunday rang-baranglik so'zanani jozibali bo'lishiga olib keladi. Asosan oq fonga qizil ranglar solib tikish odatda jozibadorlikni oshiradi. Gullar va doira bezaklari ham qizil ipaklar bilan tikiladi. Band, shoxchalar, yaproqlarning markazlari jigarrang, och jigarrang va ko'm-ko'k ipak bilan tikiladi. Bunday rang-baranglik tabiatdagi o'simliklarning rangiga umuman mos keladi. Qizil va yashil ranglar esa ularni yashnatib turadi. Qizil rang, to'q sariq, och qizil, to'q jigarrang, pushti rang kabi turli yoqimli ranglarga taqqoslab tikilib chiqadi, bular yonida sovuq ranglardan to'q qizil va och qizil ranglar tikiladi.

Kashtalarda qo'llaniladigan yashil ranglar ham turli - tuman bo'ladi, ularda sarg'ish yashil va ko'kish feruza (dengiz suvi rangi) turlari bilan birga to'q havo rang va yashil ranglarning har xili qo'llanilishi mumkin. Sariq va havo ranglarning aralashuvidan hosil qilinadigan yashil rang ham, har xil ko'rinishga egadir, unda goh zarhal, goh havo ranglar tovlanib, ajoyib joziba hosil qiladi. So'zana tikganda uning bezaklari qizg'ish va to'q qizil ranglarning tartibli ravishda qaytarilish asosida tikiladi. To'q qizil va malla ranglarning bir xilda almashinib kelishi Shofirkon kashtasiga mosdir. Rangli bezaklar ishlashda faqat qizil ranglargina qo'llanilmay, balki gullar, doira bezaklarining ayrim joylari sariq, zangori, navvoti, och binafsha, pushti rang ipaklarda tikiladi. Odatga ko'ra gullar va doira bezaklarining chetiga konturlar tikilmaydi. Bu esa bezaklarning tabiiy gulga o'xshashiga olib keladi, gulning barglari qora yoki boshqa rangli chiziqlar bilan chegaralanadi. Kashtalardagi rang - baranglilik, qizil va yashil, sariq va binafsha, to'q sariq va havo rang, yashil va to'q sariq, qora va oq ranglar kontrasti asosida beriladi.

Shofirkon kashtalarining xarakterli tomoni shundaki, ularda ko'proq zangori, kulrang va pushti ranglar ishlatiladi. Aynan shu ranglarni Varaxsha devori naqshlarida ham (eramizdan oldingi VII asr yodgorligi) uchratish mumkin.

XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida rang berish tubdan o'zgardi. Badiiy san'atdan grafika uslubiga ko'proq yondoshildi, bu esa so'zanalardagi tabiiylikni birmuncha pasaytirdi. Ipaklar anilin bilan bo'yalgandan so'ng, ularning nafisligi va jozibasi pasaydi, dag'al va yoqimsiz bo'lib qoldi. Hozirgi kunda ipaklarni tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yash yana qayta yo'lga qo'yildi va bu bilan ipaklardagi jozibadorlik yanada ortdi. Ularning yaltiroqligi kashtadagi gullar va barglarning yanada jonli qiyofa kasb etish insonlarda tabiatga, atrof-muhitga, badiiy bezak san'atiga bo'lgan mehrni yanada kuchaytiradi.

Kashtada rangli ipaklar tabiiy bo'yoqlarda bo'yab tikilganda, avvalo, badiiy bezak san'atining umrboqiyligi oshadi, avloddan-avlodga meros bo'lib qolish, bir necha yuz yillar holatini saqlab qolish xususiyati kuchayadi. Chunki tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipak iplari quyosh nuri, tabiat inijliklari, tashqi muhit ta'sirlariga ancha pishiq va mustahkamdir. Tabiiy bo'yoqlarga bo'yalgan ipak iplaridan tayyorlangan goh katta so'zanalar, goh kichik hajmdagi kashtachilik namunalari bo'lsin, ular inson oliy nerv sistemasiga juda ijobiy ta'sir etadi va kishiga orombaxsh tuyg'u, hayotga muhabbat, mehnatni qadrlash, Vatanni sevish, sabr - qanoat, atrofdagi odamlarga mehr - oqibatli bo'lish, qadriyatlarni ardoqlash, uni asrab - avaylash kabi hissiyotlarni shakllantiradi.

2.3. KASHTACHILIKDA RANGLAR SIMVOLIKASI VA RANG TANLASH

Ranglar ramzlarini alohida ta'kidlash muhim. Ranglarning ma'lum bir ramziy ma'no anglatishi ilk davr san'ati, shuningdek, islom san'ati uchun xususiyatlidir, kashta buyumlarining boy naqshinkorligi rang orqali erishiladi. Rang bu badiiy ifoda vositasi. Kashta buyumlari ustida hosil bo'lgan choklarning bo'rtmali qatori ipakning jilosi uyg'unligida ajoyib bezakdor natija beradi. Kashta buyumlaridagi koloristik echimida nafaqat ip rangi, fon rangi ham juda ahamiyatli. Kompozistiya kontrast asosida shakllanadi, eng sevimli uslublardan biri - qora fonda chizmatasvirning atrofi oq tasma bilan o'ralishi va aksincha och fonda qora tasmaning qo'llanilishi, bunday ko'rinish xind bezakli san'atiga ham xosdir.

Rang echimi doimo inson kayfiyatiga ta'sir etib, unda turli his-tuyg'ularni o'yg'otib kelgan. Oq rang ilohiylik, baxt, poklik ma'nosini anglatadi. Qizil rang bilan gullar va butalar tasvirlangan, hayotni o'yg'onishi demakdir, hamda himoya etuvchi xususiyatga ega ekanligini anglatadi. Moviy qadimgi afsona va e'tiqod bo'yicha baxt ramzi, osmon va suv ramzi bo'lgan, shuningdek, O'rta Osiyo me'moriy kulolchilikda ko'proq ko'llanilgan rang.

Ko'k rang - erkak ramzi, muqaddas osmon ramzidir. Qora rang - dafn marosim, yomonlik va qayg'ulikni ifoda etuvchi rang. Gulli mavzularning rang-barangligiga nafaqat shakllarni o'zgartirish evaziga, balki ranglar echimi orqali ham erishilgan. Kashtado'zlar iplarni tanlar ekanlar, ularni doimiy tarzda almashtirib turishadi. Masalan, bir gulni qizil va to'q qizil tuslar yordamida yoki qizil va ko'k rangdagi iplar bilan kashtalashadi. Kashtachilik buyumlaridagi naqshlarni boyitishga rang vositasida ham erishilmoqda. Do'ppidagi kolorit echimida kashtaning o'zidagi rang va tagligi hisobga olinadi. Qavatlarning tarxidagi yo'llar ipak o'zagi bilan qo'shib, uyg'unlashib ajoyib bezakka aylanadi.



Ipning pishiq chiyranganligi, tovlanishi va ranglanishining sifati katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, naqshning tarxi va aniqligi ko'p jihatdan ip rangiga bog'liq. O'simliksimon naqshlar yorqin va go'zal qushlar tasvirlari bilan ko'pincha jonlik bergan. Asosan bular fazan, xo'roz, bulbul tasvirlari bo'lib, qushlar qomati juda yorqin, nakshga bo'ysungan holda kiritilib, juda shartli talqin etiladi. Do'ppilardagi qushlar naqshi do'ppilarning nomida ham o'z aksini topgan. Masalan, qo'qon do'ppisining turli xil ko'rinishidagi chizmatasvir (oq par) - oq pat deb nomlanadi.

Qadim - qadimdan insoniyat ranglarga aloxida ramziy ahamiyat berib kelgan. Har bir jon o'z mohiyatiga monand rangni beixtiyor xis etadi, unga ixlos qo'yadi, zarur kelganda sonsiz ranglar ichidan ayni shuni ajratib oladi. Ranglarga munosabat odamning o'z - o'zini tuzukroq anglab olishga yordam beradi. Buning uchun avvalo eng yaxshi va eng yomon ko'rgan rangni aniqlab olmoq kerak. Qizil rang taraqqiyot va zafarlar ramzidir. U ijod, faoliyat jarayonini mujassam etadi, mehnatga rag'batlantiradi, askarlar va inqilobchilar, umuman, erkak kishilar rangi hisoblanadi. Hamma ranglar ichida qizilni a'lo ko'radigan kishilar odatda to'laqonli hayot kechiradilar, lekin voqealarga mubolag'ali nazar bilan qaraydilar. Ta'savvur doirasini kengaytirish, yangi yutuqlarni qo'lga kiritish uchun ular faol harakat qiladilar. Tajovuzning har qanday xilini rad etadigan kishilar qizil rangni ham yomon ko'radilar.

Moviy rang mexr-oqibat, vafo va sadoqat ramzidir, kungilga taskin beradigan, xavotirlarni aritadigan, xuzur-xalovat baxsh etadigan rang. Ko'proq ayollarga yoqadi.

Bu rangni yaxshi ko'radiganlar muvaffaqiyatsizlikka uchraganda xafsalasi pir bo'lib, umidsizlanib qoladilar. Ko'ngli g'ash, xira bo'lib, lekin axvolni keskin o'zgartirib, bu tushkun va loqayd holatni engib, qutulib ketishni dilga tugib yurgan odamlar bu rangni tushunmaydilar.

Yashil rang o'z ichiga moviy rangni ham singdirgandir. Bu rang - barqarorlik, sabot-matonat, qadr-qimmat ramzidir. Bu rangni yuqori quygan kishilar aksaran to'g'ri so'z, xatto rioyasiz, sal takabbur bo'ladilar. Ularda xukmronlikka, boshqalarga ta'siu irodasi, ruhiy matonati bu xil kishilarga har qanday qiyinchilikni engishga imkon beradi. Bu rangni qat'iyan rad etadigan kishi esa o'zini noxaq ravishda kamsitilgan, xizmatlariga yarasha taqdirlanmagan xis etib, ranjib, nolib yuradi. Bu holatdan qo'to'lib ketishga esa jur'ati etmaydi.

Sariq rang orzu - havaslar, bepoyonlik ramzidir. Kayfiyatni yaxshilaydigan, kungillarga taskin beradigan baqava, xosiyatli rang. Mustaqilikka intilgan, o'z baxtini o'z yo'li bilan yaratishga qasd qilgan shu yo'lda xalol mehnat qilishga bel bog'lagan har kishi bu rangni birinchi o'ringa quyishi shubxasiz. Sariq rangni qabul qilmagan kishilar uni bachkana, ko'rimsiz deb, pisand qilmaydilar. Bunday kishilarga ma'naviy turg'unlik, mustaqillik etishmaydi. Ular yo'q xatolardan xadiksirab, salga ruhan cho'kib, atrof kishilar fikri tazyiqida ish tutadilar.

Safsar - qarama-qarshi ikki rangning qorishmasidir. Qizil omad va ravnaqni mujassam etsa, ko'k samimiyat va mehr-oqibat ramzidir. Bu sir - asrorlarga to'la, mo''jizalar, armonlar rangnidir. Shu sababdan bo'lsa, kerak ko'proq bolalarga o'tmishni kuzatilgan. Safsar rang shaydolari qaram fikrli, lekin o'zlari ham boshqalarni o'z izmiga solishni istagan kishilardilar.

Tan olish kerak ular o'z atrofida axil, totuv muxit yarata oladilar, biroq qaror qabul qilishda biroz ikkilanib qoladilar. Safsar rang befarqlik - xirsiy extirolarning tumtoqdagi, o'shalmagan orzular belgisidir. Qo'ng'ir rang xavotir, xasad, inqiroz ramzidir. Mutaxassislar fikricha, ichki ziddiyatlar, dil qa'riga yashirilgan tajovuskor, hislar ranggi. Bu rangni g'oya va hazin, asablarni tarang kishilar tanlaydilar. Ularda yaxshilab dam olishga, ko'ngilni bo'shatishga kuchli extiyoj seziladi. Sog'lom, betashvish, serg'ayrat kishilar bu rangni oxirroqqa qo'yadilar. Qo'ng'ir rangni ta'bi

ko'tarmaydigan kishilar jun va bachkana narsalarga qarshi, o'z nuqtai nazariga ega, lekin ma'lum darajada quntsiz bo'ladi.

Kul rang sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan bezarar rangdir. U tinchlantirmaydi, lekin qashga ham tegmaydi. Kul rang birinchi o'rinda turgan taqdirda - kishi o'zini tashqi ta'sirlardan extiyot qiladi, ichki muvozanati va ichki osoyishtaligi bo'zilishini istamaydi. Xis-to'yg'ularini pinxon tutadi, sir bermaydigan odamlar jumlasiga kiradi. Bu rangni oxirgi o'rinda ko'radigan kishilar - harakatchan, qiziquvchan, biroq xiyla xiyonatkorlar. Ular uchun bu rang zerikarli, tuyiq tuyuladi, ular yorqin taassurotlarni, qaynoq voqealar ichida yurishni yoqtiradilar, hayotni chetga chiqarib qo'yishidan cho'chydilar.

Qora rang uzlat, tanqid, fidokorlik ramzi. Shu rangga moyil kishilar har narsaga tanqid o'lchov bilan yondoshadilar, har narsa to'g'risida keskin, xatto qaltis muloxaza yuritadilar. Shu bois hayot bilan bellashuvda ko'p mag'lubiyatga uchraydilar, ammo ichki erkni satxlab qolaman, degan kishi ba'zan ilojisiz narsalardan kecha bilishi ham kerakdir. Butun spektr qatorini o'z ichiga olgan, murakkab, muqaddas oq rang. Fazlu kamol, xalolu pokizalik, bokiralik ramzi. Bu rangni sevgan kishilarni xavas qilsa arziydi. Ranglar tili, puxta egallangan taqdirda, odamlarning, xatto jamiyatning ma'naviy holati to'g'risida ta'savvur berishi mumkin.

Yaqin vaqtlardan beri yapon ayollari qizil rangli kiyimlarni ma'qul ko'rib qoldilar, chunki chevarlar qizil rangli kiyim kiyadigan juvonlarning uzoq vaqtlarga qadar yosharib, jozibador bo'lib yurishlarini aytmoqdalar, bu gaplarda oz bo'lsada haqiqat bor. Qadim zamonlardan beri turli xildagi ranglarning shifobaxsh ta'siri ma'lum. Masalan, sharqda qizil rang ichaklarning quyi qismini va oyoqlarni nazorat qilib turadigan energetik chakralardan biri, deb hisoblangan. Qizil rang muskul faoliyatini yaxshilaydi. Moddalar almashinuvini me'yoriga keltirib turadi.

Qon yaratilishini yaxshilaydi, shuningdek, teri kasalliklarida, chunonchi chechak qizamiq, saramas, volchanka, skarlatinaga davo bo'ladi. Xotirani mustaxkamlaydi. Odamga tetiklik va quvvat baxsh etadi, virusli kasalliklarda yordam beradi. Ayni vaqtda qizil rang odamni qo'zg'atish, boshni og'ritishi, asabiylashtirishi mumkin. Shuning uchun semiz odamlar qizil rangdan extiyot bo'lganlari ma'qul.

Zarg'aldoq rang me'da-ichak ishini me'yoriga soladi, ishtaxani ochadi. Ilgarilari oshxona va mehmonxonalarga zarg'aldoq rangli abajurlar osib qo'yilgani bejiz emas. Bundan tashqari, zarg'aldoq rang o'pka kasalliklarda (o'pka, traxeya, bronxlar, xalqum, xiqildoq) kasalliklarda organizmga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi. Xususan bronxial astmasi bor bemorlar uchun juda foydali. Zarg'aldoq rang endokrin tizimni rag'batlantiradi. Taloq va qizilungach kasalliklarida samarali.



Sariq rang boshqa shifobaxsh vositalar bilan biriga atonik qabziyat, o'yqusizlik teri kasalliklardan foriq bo'lishda yordam beradi. Sariq rang ishtaxani ochadi. Butun organizmga tozalovchi ta'sir ko'rsatadi. Ko'z va jigar ishini rag'batlantiradi. Nerv sistemasi tonusini oshiradi. Aqliy qobiliyatni yaxshilaydi.

Yashil rang qadim zamonlardan abadiylik timsoli hisoblanadi, u aritmiyani yo'qotadi. Qon bosimini me'yoriga keltiradi. Yurak o'ynashini yo'qotadi. Shamollash kasalliklarida davo, asabiylashishga va jaxldorlikka yo'l quymaydi, yashil rang bronxlarning kengayishiga ta'sir qiladi, quloqning eshitishini yaxshilaydi. Yurak qisqarishlarini kuchaytiradi, mehnat qobiliyatini oshiradi, bosh og'rig'ini kamaytiradi.

Ko'k va havo rang (zangori) juda kuchli antiseptik havo rang pigment dog'larni, jigar kasalligini, sariqni, ko'yganlarni davolaydi, yallig'lanish jarayonlarini bosadi.


Havo rang ko'z xiqildoq, umurtqa pog'onasi kasalliklarida qo'llaniladi, shuningdek yurak faoliyatini meyorlashtiradi.

Moviy rangning ozish niyatidagi odamlarga foydali bo'lishi sezilgan. Havo rang idish, havorang dasturxon, havorang yorug'lik devorlarning havo rangga bo'yalgani ishtaxani juda pasaytiradi va dasturxonga tortiladigan ovqatni ko'rimsiz qiladi. Ko'k rang qalqonsimon bez kasalliklarida, bo'qoqda, o'pka kasalliklarida yordam beradi. Ko'k rang katarakta, glaukoma, astma va o'pka yallig'lanishida shifobaxsh.

Hind olimlari ko'k rang ruhiy nosog'lom odamlarga uzoq vaqt ta'sir qilish turganda ular ozmi-ko'pmi darddan foriq bo'lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Faqat nerv sistemasi bo'sh odamlar ko'k va moviy rangdan uzoqroq bo'lganlari ma'qul, chunki bu rang ularga ruhni ezadigan ta'sir ko'rsatadi.

Binafsha rangdan barcha ruhiy kasalliklar va asab buzilishlari, nevrалgiya, revmatizm, miya chayqalishi, jigar va ajratuv sistemalari kasalliklarida foydalanish mumkin, uning tomirlar sistemasiga yaxshi ta'sir qilishi ham qayd qilingan. Shunisi qiziqki, chet el olimlari, ranglarning qon guruxlariga aloqador bo'lishini aniqladilar. Masalan, qoni birinchi gurux odamlar qizil, zarg'aldoq, (pur-pur) to'q qizil ranglari ma'qul ko'radilar. Qoni ikkinchi gurux odamlarga hayotiy jarayonlarni me'yorlashtirish uchun moviy va yashil ranglar tavsiya etiladi, chunki bu ranglar tanaga va aqliy qobiliyatga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Qoni uchinchi gurux odamlarga hamma ranglar mos kelaveradi. Ularga qizil va zarg'aldoq ranglarni qo'llash hayot faoliyati jarayonlarini rag'batlantiradi va aqliy faollikni oshiradi.

Moviy va yashil ranglar asablarni tinchlantiradi, binafsha rang uy-xayollar va xotiralarning yaralishiga yordam beradi. Qoni to'rtinchi gurux odamlar energetik ta'riflariga ko'ra, ikkinchi guruxga o'xshaydilar. Moviy va yashil ranglar ularga ancha yaxshi. Kiyim tanlashda va o'yingizni jixozlashda yuqorida aytib o'tilgan ranglardan o'zingizga ta'luqligini tanlash, doimo sixat - salomat va kayfiyatingiz yaxshi bo'lib yuradi.



Ranglarning ramziy ma'nolari.

1. Yashil rang. Ona tabiat, islom ramzi.
2. Moviy rang. Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi.
3. Qizil rang. G'alaba, olov, ilqlik, xursandlik, shodlik, qon.
4. Sariq rang. Muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik.
5. Qora rang. Motam, cheksizlik, mavxumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik.
6. Zangori rang. Oliy e'tiqod.
7. Oq rang. Poklik, ozodlik, yorug'lik, baxt, omad.

2.4. KASHTACHILIKDA SOVG'ABOB BUYUM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari - bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu - umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdirib kelganlar. Bunday kashta buyumlari - noyob san'at asari sifatida yaratilishi tomoshabinning bag'ri - dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevis, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi. Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi. (Nurato, Buxoroda (Takiyapo'sh), Samarqand, Shaxrisabzda (Bolishpo'sh,) deb yuritiladi. Bular taxmonga (rax) yig'ilgan ko'rpa - yostiqlarni yopib qo'yiladi, taxmon uyning to'rida bo'ladi.

Kashtachilik san'ati insonga estetik zavq bag'ishlaydi, uylarni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm - rusumlar sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Kashtachilikda sovg'abop buyumlar tayyorlash texnologiyasi" bo'lib, bitiruv malakaviy ishning nazariy qismi II bobdan tashkil topgan. I-bobda kashtachilik san'ati tarixi, Shofirkon kashtachilik san'ati maktabining tahlili, ramziy naqshlar ma'nosi, sovg'abop buyum turlari haqida keng ma'lumot berilgan. Bitiruv malakaviy ishning II bobida kashtachilik san'atida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ipak turlari, kompozitsiya qonuni, ipakni tabiiy ranglarga bo'yash texnologiyasi, rang simbolikasi, hamda sovg'abop buyum tayyorlash texnologiyasi haqida ma'lumot berilgan. Bitiruv malakaviy ishning nazariy qismini yozishda men bir qancha adabiyotlardan va internet saytlaridan foydalandim.

Kashtachilikda sovg'abop buyum tayyorlashdan oldin, turli naqsh kompozistiyalar tanlab, izlanish eskizlari bajardim. Bunda bodom, stillashtirilgan gullar va barglar va anor naqshi tasvirlangan ramziy naqshlardan foydalandim. Naqsh kompozistiyani matoga ko'chirish uchun, malla bo'z matosiga tanlangan naqsh kompozistiyani ko'chirdim. Naqsh kompozistiyasi o'lchamsiz, asosan ko'z bilan chamalab chiziladi. Har bir hududning o'ziga xos naqsh kompozistiyasi mavjud

bo'lib, bu o'sha chizmakashning mahoratini, uning tabiati, o'rab turgan muhitning qanchalik aniq va keng bilishiga bog'liq bo'ladi.

Ular asosan qadimdan qolgan chizmalarni asos qilib olsalarda, chizmalarga o'zlarining fantaziyalarini qo'shib borganlar. O'zbek kashtalarining o'ziga xos xususiyati hammani maftun etib olishida, ularda bir xil elementlarning uchramasligi va mexanik ravishda qaytarilmasligidadir.

Tabiiy yo'l bilan bo'yalgan ipak yordamida yo'rmado'zlik chokidan foydalanib kashta tikishni boshladim. Yo'rma choki - yo'rmaki, ilmoqli bigiz yoki igna bilan matoning o'ng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikiladigan uslubdir. Pannoda igna yordamida anor va stillashtirilgan gul va barglar va turli islmiy naqshlar kashtachilik uslubida tikilgan.

Bitiruv malakaviy ishimning amaliy qismida kashtachilikda sovg'abop buyumni bajardim. Eng avvalo men bo'lajak pannoning eskizi ustida izlandim, bunda men so'zana va palaklarning naqshlarini va ularning ma'nolarini o'rgandim. Kashtachilik uslubida panno bajarish uchun anchagina naqsh eskizlarini tuzdim. Eskiz tayyor bo'lganidan so'ng, uni bo'z matosiga chizishni boshladim, unda stillashtirilgan gullar va barglar, anor, bodom naqshlari aks etgan.

Naqsh elementlarini chizishda ularning simmetriyasi buzilmasligi kerak. Naqsh kompozitsiya ustidagi ishlar yakuniga yetganidan so'ng, kashta tikish jarayoni boshlanadi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga, har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar axta, yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi, keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Kashta tikishdan oldin albatta iplarning rangini oldindan tanlash kerak bo'ladi. Men kashtachilikda badiiy buyum tayyorlash uchun, pannoni iroqi uslubida tikdim, chunki bu uslub Buxoro kashtachilik maktabiga xos choklardan biridir. Kashta tikishda o'ziga xos ish qurollaridan foydalandim, bular turli xil hajmlidagi kashtachilik ignalari, angishvona, qaychi, chambarak hamda har - xil rangli ipak kashta iplaridir.



Chambaraklar hamma kashtalarga ham ishlatilavermaydi. Ip va ignani kashta tikiladigan matoning qalinligiga mos qilib tanladim. Naqsh kompozitsiyasini tikish jarayonida albatta bir nechta ignalarga ipni o'tkazib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Ip tugagandan so'ng yangi igna olib tikilaveradi, ipni qirqish uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun, ip 50 - 60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim. Bizga ma'lumki, qo'lda kashta tikishning ikki turi bor, bular matoning

arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, hamda matoga naqsh kompozitsiyasini, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish. Men bu pannoni tikishda matoga naqsh kompozitsiyasini, gullarni, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikdim. Erkin kashta tikishda har qanday matoga tikilaveradi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti, ya'ni konturi oldin tikib chiqildi va keyin ichi to'ldirildi.

Kashta tikilayotgan mato tizza ustiga erkin tashlab qo'yilib tikiladi. Yirik kashta buyumlardan so'zana va palakni tikishda, kompozitsiya va naqsh chizilgach, bir necha bo'laklarga ajratilib tikiladi, so'ngra qaytib birlashtiriladi. Bunda har bir bo'lak boshqa-boshqa chevar yoki davra - davra bo'lib tikilishi mumkin, ammo ip ranglari va uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo'ladi. Eng muhim masalalardan biri, avvalo kashtado'zning ish o'rniga katta e'tibor berish va qulayliklar yaratishdir. Kashta tikish qulay bo'lishi, charchatmasligi uchun, ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnat qilishning muayyan qoidalariga rioya etish kerak.

Asbob va moslamalar qo'yiladigan stol ustidagi ishga yorug'lik chap tomondan tushadigan holatda turishi kerak. Agar stolda quticha bo'lsa, unda ip

maxsus xaltada, asboblari qutichada, kashta gulli shaffof qog'ozi paketda saqlanishi kerak.

Kashtado'zning gavda holatiga ahamiyat berib, bukchaymay, boshni juda past egmasdan o'tirish kerak. Ish vaqtida gavda biroz oldinga engashgan bo'lishi, ko'z bilan ish o'rtasidagi oraliq 25 - 30 sm dan oshmasligi lozim.

Ish vaqtida qo'lni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Chap qo'l chambarak tagida bo'lib, o'ng qo'l chambarak ustida bo'lishi kerak. Siyrak gazlamaga va to'rga baxyasimon suv chokli kashta tikishda o'ng qo'lda ignani uning uch tomoni bilan kashtaning teskari tomonidan o'tkaziladi. Ignaning uchli tomonini chap qo'lda tutib, uning ko'z tomoni bilan kashtaning o'ng tomoniga chiqariladi. O'ng qo'l bilan ip tortib qo'yiladi, zich gazlamalarga kashta tikishda, kashtaning o'ngiga ignani uning uchki tomoni bilan chiqariladi.

Bigiz yordamida ham yo'rmado'zlikda kashta tikish mumkin. Bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtidan chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi, yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarin asosiy shoxga ulaydigan bandlar tikilgan.

Bigiz - Buxoroda (daravsh) deb yuritiladi. Daravsh bilan tikishda ipak iplar avval kalava shaklida tayyorlanadi, keyin tabiiy yo'l bilan bo'yaladi. Bo'yalganidan so'ng kalava qayta koptok shaklida o'raladi va iplarning biri o'ngga, biri esa chapga aylantirilib, top solinadi, shundan so'ng ular birlashtirilib, ikki ip qatim qilinib o'raladi va kichik koptok shakliga keltiriladi. Daravsh bilan tikilgan matoning yuzi tomonidan taxminan 30-40 gradus qiyalikda so'kiladi va ip matoning ostidan barmoqlar yordamida berib turiladi. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.

Kashta tikish jarayonida men igna, angishvona, to'g'nog'ich, qaychi va ipakdan foydalandim. Kashta tikish jarayonida igna barmoqlarga sanchilmasligi va zarar yetkazmasligi uchun maxsus barmoqqa kiydiriladigan noxunak (angishvona)dan foydalanish zarur. Yo'rma chokida tikilgan kashta badiiy buyumi, tikish gul konturi bo'ylab yo'rma chok zanjiri davom ettiriladi, chegara kontur tugagach, gulning ichiga turli tasvirlar tikib chiqiladi. Katta gullarni yo'rma - yo'rma zanjiri bilan to'ldirishda kashtachilar erkin uslubga suyanadilar. Buxoroning yo'rma

chok san'ati ko'p qadimiy so'zanalari bilan dong taratgan. Erkin kashta har qanday matoga tikilaveriladi, bunda kashta turlari ixtiyoriy, turlicha bo'lishi mumkin.

Bosma va yo'rma choklarining turli xillari qo'llaniladi: ornament gullari ham shu choklarda tikiladi va bu chok ikki turga bo'linadi: bosma va kandaxayol, har ikkala uslub ham bir - biriga o'xshaydi.

Tikish uslubi: uzun tomonining bir chetidan ikkinchi chetiga ip tortiladi va u ko'ndalang chok bilan tikib chiqiladi. Keyingi ip oldingi bo'ylama tortilgan ipga yopishtirib tortilib, xuddi avvalgisidek eniga suriladi. Bosma usulda esa chok mayda bo'lib, deyarli perpendikulyar tikiladi va mato uzunasiga tortilgan ipga nisbatan sal qiyshiqroq bo'ladi. Har qaysi qator choklari bir - biridan ajralib turadi. Shunday usulda tikilganda so'zananing o'ng (rost) tomonida chiroyli, nafis relyefni gul hosil qilgan choklarning to'g'ri diogonal qatori hosil bo'ladi.



Shaharlarning asli san'ati o'z ifodasini topgan. Buxoro kashtachilarining asosiy belgilaridan biri, ularda yo'rma chokini mahorat bilan qo'llashga va havorang, kulrang va binafsha, pushti va och sariq ranglarning kashtadagi qizil va ko'k ranglar bilan uyg'unlanishidir. Kashtalarda markaz va burchaklarda bo'rtirib ko'rinuvchi yopiq kompozitsiya ko'proq uchraydi, bunda asosiy motiv davra - turunj hisoblanadi, u gulida ham ko'rinib turadi.

XIX asrdan qolgan eng yaxshi kashtalar 1850 - 1870 yillarda tikilgan. Bundan oldingi XIX asrning birinchi yarmida tikilgan kashtalar haqida juda kam ma'lumotlar bor. So'zana gulida 14 va hatto undan ko'p rangli ipak kashtalari va ular bir butun jiddiy kalorit hosil qiluvchi qirmizi malina, och ko'kimtir, yashil va qizil tilla ranglar ko'pchilikni hosil qiladi. Qolgan tomonlardan mayda gullarda ustalik bilan ishlatiladi.

XULOSA

O'zbek xonadonining asosiy bezaklaridan biri - kashtadir, ayniqsa, bayram, to'y, marosim paytlarida kashtachilik badiiy buyumlari bezak uchun o'zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi. Kashtadagi katta gullar xonaga to'g'ri nisbatda joylantiriladi va uzoqdan yaxshi ko'rinishi ham e'tiborga olinadi. Qorong'iroq uylarda joylashtirilgan rango - rang ipak kashtalar tovlanib turadi va insonga estetik ruh bag'ishlaydi. Kelin tushadigan xonaning devorlarida bo'sh joy qoldirilmaydi. Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi.

Kashtado'zlik san'atining nodir namunalari hozirgi kunda jahondagi ko'plab muzeylarda, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelinmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Sankt-Peterburg, Moskvadagi Sharq madaniyati muzeylarida, G'arbiy Evropa, jumladan Berlin xalqshunoslik muzeyi shular jumlasidandir. Bu kashta buyumlar XIX asr oxirlarida O'zbekistondan olib ketilgan. XIX asr oxirida Stokgolmda F.R.Martinning O'rta Osiyo hunarmandchilik san'ati asarlaridan yig'gan kolleksiyaasining ko'rgazmasi bo'ldi. Bessertning Berlin xalqshunoslik muzeyida saqlanuvchi turli xalqlarning naqshlariga bag'ishlangan albomda Buxoro, Nurota, Shaxrisabzning 30 ta kashta detallari 3 rangli jadvalda berilgan.

Hozirgi kunda Buxoro kashtachilik san'atining asl namunalari rus davlat muzeyida (Sankt Piterburg), Sharq madaniyati muzeyida (Moskva), Tojikiston O'lkashunoslik muzeyida (Dushanbe), Tojikiston Fanlar Akademiyasi muzeyida, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida (Toshkent), O'zbekiston madaniyat va san'at tarixi Respublika muzeyida (Samarqand), Tarixiy o'lkashunoslik muzeylarida (Buxoro), O'zbekiston Respublikasi dekorativ amaliy san'at muzeylarida (Toshkent) saqlanmoqda.

Kashtachilik buyumlari kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi, uylarni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va

rasm-rusmlar sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi. Yirik kashtalardan palak, so'zana, takiyapo'sh va joynamoz, inson hayotidagi quvonchlik xodisalar bilan bog'liq bo'lgan. Ularni asosan kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashkil qiladi. Yosh kelin-kuyovlarga qadim-qadimdan saqlanib kelayotgan odatga ko'ra, kashta gullariga yomon ko'zdan saqlovchi tumorlar qo'shib tikilgan. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi, bu esa o'ziga xos ramziylikni bildiradi, ya'ni farzandlar davom ettirishi, hayotining bog'liqligi, avloddan-avlodga o'tishi yoki to'y ketidan to'y kelsin va kashtalar tikilaversin, qizim omon bo'lib, boshimiz xursandchilikdan chiqmasin, degan ezgu niyatlari bildiradi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari, bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu-umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning baxri-dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida kashtachilik san'ati va maktablarini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarni chiqardim. Xalqning fikri va his-tuyg'ularini, voqelikni to'g'ri tushunish kashta va so'zanalardagi mukammal obrazlarda ifodalangan. Tadqiqotchi V.S.Voronovning xalq san'atiga bergan xarakteristikasini bu san'atga ham tatbiq etish mumkin. Barcha badiiy vositalar naqsh tuzilishi va uning dekorativ talqini, rang jihatdan hal etilishi, buyumning tikilishi va tikuv uslubi bir-biriga juda bog'liqdir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi va har jihatdan ajoyib qismlari bir-biriga uzviy bo'lgan dekorativ badiiy asar yaratishga xizmat qiladi.

Chevarlarning zo'r badiiy didi, bezaklarni matoga o'z o'rnini topib joylashtirishda ham ko'rinadi, ular gazlamani haddan tashqari bezab tashlamaydilar, shu bilan birga, bekorchi joy ham bo'sh qoldirilmaydi. Shu sababli fon va bezaklar bir-biriga uzviy joylashadi va ajoyib manzara kashf etadi.

Kashta bezaklari orasidagi fonning o'zi ham pannoda go'yo qo'shimcha bezakday ko'rinadi. Fonning bunday aktiv roli O'rta Osiyo xalqlari dekorativ san'atiga umuman xos narsadir. Asosan simmetrik bo'lgan so'zana bezaklari

ko'pincha qat'iy geometrik simmetriyadan bir oz chetga chiqadi. Masalan, pannoning to'rtala burchagi har doim ham bir xil bo'lmaydi, uning bir bo'lagida qo'shimcha kichik bezaklar bo'lishi mumkin, boshqa bo'lagidagi bezaklar esa unga uncha hamohang bo'lmaydi.

Bezaklarning bunday erkin joylashtirilishi o'simliksimon chiziqlarning tabiiy ritmi kabi kashtalarga alohida joziba beradi. Har bir gulni har safar erkin chiziqlarda berishga urinishda ham bu jonlilik, joziba sezilib turadi.

Shakllari jihatidan sodda bo'lgan bezaklar ko'pincha bir xil chiziqlarga ega bo'ladi. Shuning uchun bezaklarning rang-barangligi ikkita bir xil detalning turlicha ishlanishi natijasida hosil qilinadi. Kashta asosiy badiiy vosita bo'lgan ipaklar, shuningdek, tikuv uslubi asosida amalga oshiriladi. Kashta uslubi asarning badiiyligiga bevosita ta'sir etadi. Matodagi choklarning o'zi ham rangli ipak bilan birga kuchli dekorativ ta'sirchanlikni oshiradi, bunda kashta tikish mahoratigina emas, balki badiiy did, nafosat, ipaklarning yaxshi yigirilganligi, rangi va sifati ham ahamiyatga ega.

XIX asrdagi eng yaxshi kashta namunalarining o'chmas jozibasi va o'ziga xosligi ularning uzviy joylashtirilgan gullar ritmida, har bir kashta kompozistiyasini kutilmaganda yangicha hal etilishida, yorqin, hayotbaxsh ranglarning uyg'unlashishi va mahorat bilan tikilishidadir. Yuzlab, minglab so'zanalarni tomosha qilganda ham, ikkita aynan bir xil asar uchratilmaydi, ularning har biri o'zgachadir. Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari, bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu-umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning baxri - dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Bugun biz mislsiz hodisa – amaliy va tasviriy san'atning yasharishi va yashnashi boshlanayotgan davomli jarayon ostonasida turibmiz. Ko'z o'ngimizda Mustaqil O'zbekistonning yangi san'atlari tug'ilib kelmoqda. Bu san'at mustaqillik yo'lidan borayotgan xalqqa munosib bo'lmog'i kerak.

ILOVA



ANOR GULIDAN TUZILGAN RAMZIY NAQSH KOMPOZITSIYA
(Kashta tikish jarayoni)



ANOR GULIDAN TUZILGAN RAMZIY NAQSH KOMPOZITSIYA

(Kashta tikish jarayoni)



STILLASHTIRILGAN ANOR NAQSHIDAN TUZILGAN NAQSH
KOMPOZITSIYA
(Kashta tikish jarayoni)



KASHTACHILIKDA BAJARILGAN SOVG'ABOB BUYUM



KASHTACHILIKDA BAJARILGAN SOVG'ABOB BUYUM



**KASHTACHILIKDA ISLIMIY VA GEOMETRIK NAQSHLAR
BILAN BEZALGAN YOSTIQ JILDI.**



**RAMZIY NAQSH KOMPOZITSIYASI AKS ETIB
KASHTACHILIKDA TIKILGAN SO'ZANA**



**STILLASHTIRILGAN GULLARDAN TUZILGAN
KASHTACHILIKDA TIKILGAN SO'ZANA**



IPAKNI TABIIY RANGLARDA BO'YASH JARAYONI

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Muxammad Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. O‘zbekiston. Fan.T.:1966.
- 2.Yu.S.Muxtor. K.Bobomurod «Shofirkon tarixi». T.:1998 yil.
- 3.N.Isaeva-Yunusova “Tadjikskaya vshivka”. – M.: 1979. 23-bet.
- 4.Sh.Abdullaeva, G.Tursunova, K.Musabaeva “Kashtachilik”. – T.: 2005.
- 5.A.S.Morozova. “Mashinnaya dekorativnaya vshivka”. –T.:1960.
- 6.Sh.Abdullaeva, G.Tursunova, “Kashtachilik”. O‘quv qo‘llanmasi.T.:2005.
- 7.Ranglar davolaydi. “Sixat-salomatlik” jurnali. 2002.
- 8.K.Tursunaliyev. “Tyubeteyka - odin iz izlyublennix golovnix uborov narodov Uzbekistana”. T.: Fan, 1990.
- 9.D.Umarbekova. “Xudojestvennaya vshivka Uzbekistana”. Vneshtorgizdat, 1988.
- 10.O‘zbekiston xalq san’ati. Albom. G’. G‘ulom nashriyoti, 1979.
- 11.Akademik A.Hakimov tahriri ostida. “O‘zbekiston san’ati” M.: Sharq. 2001.
- 12.D.A.Faxretdinova. “Dekorativno-prikladnoe iskusstvo Uzbekistana”. T.: Izd. G.Gulyama,1972.
- 13.G.L.Chepelevestkaya “O‘zbekiston so‘zanasi”.T.: Goslitizdat, 1961.
- 14.R.V.Almeev. “Buxara – gorod muzey”. T.: Fan 1999.
- 15.T.I.Eremenko. “Sehrli igna” T.: 1990.
- 16.R.Rassudova “Uzbekskiy xudojestvenniy shov”. T.: 1961.
- 17.K.Tursunaliyev. “Katalog vshivok Uzbekistana 19-20 v”. T.: Fan, 1976.
- 18.Q.Qosimov. “Naqqoshlik”. Toshkent 1982 y. 26-30 betlar
- 19.Sh.Barotova “O‘zbek so‘zanalari”. T.: San’at. 1998. № 1-3.
- 20.Q.Jumaev. “XIX asr oxiri XX asr Buxoro badiiy kashtachilik muzeyi”. Buxoro madaniyat tarixidan. To‘plam. № 7.

Internet saytlari:

www.vgik.info

mail@vgik.info

www.pencil.info

artinst@mail.ru

ychednoe@mail.ru